

GKG

GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA VA GEOINFORMATIKA


ILMIY - TEXNIK JURNALI

Vol 1
№ 4
(2024)


BANDS 321



BANDS 432



BANDS 742



520

420

330

250



TIAME NRU

TASHKENT INSTITUTE OF IRRIGATION AND
AGRICULTURAL MECHANIZATION ENGINEERS

NATIONAL RESEARCH UNIVERSITY



GEODEZIYA



KARTOGRAFIYA



GEOINFORMATIKA



SUN'YI YO'LDOSH
MA'LUMOTLARI



GEOMATIKA
TAHLILI

“Geodeziya, kartografiya va geoinformatika” Ilmiy-texnik jurnal

2024-yil 4-son

Muassis:

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti

Bosh muharrir:

Oymatov R.K.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini mudiri, PhD, dotsent.

Ilmiy muharrir:

Safarov E.Yu.

–Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Kartografiya” kafedrasini professori, t.f.d.

Muharrir:

Muxtorov O‘.B.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini dotsenti, PhD.

Tahrir hay‘ati tarkibi:

Suyunov A.S.

–Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, “Geodeziya va kartografiya” kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.

Sayyidqosimov S.S.

–Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Marksheyderlik ishi va geodeziya” kafedrasini professori, t.f.d., professor.

Tashpulatov S.A.

–Toshkent arxitektura-qurilish universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini professori, t.f.n.

Musayev I.M.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini dotsenti, t.f.n.

Narbayev Sh.K.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Yer resurslari va kadastr” fakulteti dekani, dotsenti, PhD

Abduraxmonov S.N.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini dotsenti, PhD.

Inamov A.N.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini dotsenti, PhD.

Allanazarov O.R.

–Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, “Marksheyderlik ishi va geodeziya” kafedrasini dotsenti, PhD.

Reymov M.P.

–“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini dotsenti, PhD.

Avezov S.A.

–Urganch davlat universiteti “Geodeziya, kartografiya va geografiya” kafedrasini dotsenti, g.f.n.

Tahrir kengashi tarkibi:

Bela M.

–Vengriya qirollik Universiteti professori, DSc.

Godjamonov M.G.

–Baku davlat universiteti, “Geodeziya va kartografiya” kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.

Nilipovskiy V.I.

–Moskva davlat yer tuzish universiteti, Xalqaro faoliyat bo‘yicha prorektor, t.f.d., professor.

Zagrebin G.I.

–Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti, Kartografiya fakulteti dekani, t.f.n., dotsent.

Zozulya V.V.

–Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti, Hududlarni boshqarish fakulteti dekani, t.f.n., dotsent.

Lorant F.

–Budapesht texnologiya va iqtisodiyot universiteti - “Geodezik tadqiqotlar” kafedrasini professori, PhD.

Alizera Sh.

–Shahid Rajaiy nomidagi o‘qituvchilarni tayyorlash universiteti, “Geodeziya muhandisligi” kafedrasini professori, PhD.

Kostesha V.A.

–Moskva davlat yer tuzish universiteti, “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasini mudiri, t.f.n., dotsent.

Oznamets V.V.

–Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti, “Geodeziya” kafedrasini mudiri, t.f.d., professor.

Shokirov Sh.S.

–AQShning Merlend universiteti professori, DSc.

Jurnal 2023 yil aprel oyidan chiqqan boshlagan

Bir yilda to‘rt marta chop etiladi (Q4)

Ruxsatnoma №062656

Manzil: 100000, Toshkent sh., M. Ulug‘bek tumani, Qori-Niyoziy ko‘chasi 39-uy.

Tel.: +998 90 974 91 49.

E-mail: u.muxtorov@tiame.uz

Chop etilgan maqola mazmuni va unda keltirilgan ma‘lumotlarning to‘g‘riligiga muallif javob beradi

Научно-технический журнал «Геодезия, картография и геоинформатика»

Выпуск 4 от 2024 г.

Организация:

Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Главный редактор:

Ойматов Р.К.

- PhD доцент, заведующий кафедрой «Геодезии и геоинформатики», Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Научный редактор:

Сафаров Э.Ю.

- д.т.н. профессор кафедры «Картография» Национального университета Узбекистана имени Мирза Улугбека.

Редактор:

Мухторов У.Б.

- PhD доцент кафедры «Геодезии и геоинформатики», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Состав редакционной коллегии:

Суюнов А.С.

- д.т.н., профессор, заведующий кафедрой «Геодезии и картографии», Самаркандский государственный архитектурно-строительный университет имени Мирза Улугбека.

Сайидкасымов С.С.

- д.т.н., профессор кафедры «Маркиайдеринг и геодезия», Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова.

Таипулатов С.А.

- к.т.н., профессор кафедры «Геодезии и геоинформатики», Ташкентский архитектурно-строительный университета.

Мусаев И.М.

- к.т.н., доцент, кафедры «Геодезии и геоинформатики», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Нарбаев Ш.К.

- PhD, доцент, декан факультета «Земельные ресурсы и кадастр», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Абдурахманов С.Н.

- PhD, доцент кафедры «Геодезии и геоинформатики», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Инамов А.Н.

- PhD, доцент кафедры «Геодезии и геоинформатики», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Алланазаров О.Р.

- PhD, доцент кафедры «Маркиайдеринг и геодезия», Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова.

Реймов М.П.

- PhD, доцент кафедры «Геодезии и геоинформатики», Национального исследовательского университета «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Авезов С.А.

- к.г.н., доцент кафедры «Геодезии, картографии и географии», Ургенчский государственный университета

Состав редакционной коллегии:

Бела М.

- DSc, профессор Королевского университета Венгрии.

Годжаманов М.Г.

- д.т.н., профессор, заведующий кафедрой «Геодезии и картографии», Бакинский государственный университета.

Нилиповский В.И.

- д.т.н., профессор, проректор по международной деятельности Московский государственный университета по землеустройству.

Загребин Г.И.

- к.т.н., доцент, декан Картографического факультета Московский государственный университета геодезии и картографии.

Зозуля В.В.

- к.т.н., доцент, декан факультета Управления территориями Московский государственный университета геодезии и картографии.

Лоран Ф.

- DSc, профессор кафедры «Геодезических исследований» Будапештский университет технологий и экономики.

Ализера Ш.

- PhD, профессор кафедры «Инженерной геодезии» Педагогического университета имени Шахида Раджаи.

Костеша В.А.

- к.т.н., доцент, заведующий кафедрой «Геодезии и геоинформатики» Московского государственного университета по землеустройству.

Ознамец В.В.

- д.т.н., профессор, заведующий кафедрой «Геодезии» Московский государственный университет геодезии и картографии.

Шокиров Ш.С.

- DSc, профессор Мэрилендский университета, США.

Журнал издан в апреле 2023 года.
Выходит четыре раза в год (Q4)
Разрешение №062656

Адрес: 100000, г.Ташкент, М.Улугбекский район, улица Кори-Ниязи, 39.

Tel.: +998 90 974 91 49.

E-mail: u.muxtorov@tiame.uz

Автор несет ответственность за содержание опубликованной статьи и достоверность содержащейся в ней информации.

"Geodesy, cartography and geoinformatics" Scientific and technical journal, issue 4, 2024

Founder:

"Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University

Editor-in-Chief:

Oymatov R.K.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, head of the "Geodesy and Geoinformatics" department, PhD, associate professor.

Scientific Editor:

Safarov E.Yu.

- Professor of the "Cartography" Department of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, DSc..

Editor:

Muxtorov O'.B.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, Associate Professor of Geodesy and Geoinformatics Department, PhD.

The composition of the editorial board:

Suyunov A.S.

- Head of the "Geodesy and Cartography" department of "Samarkand State University of Architecture and Construction" named after Mirzo Ulug'bek, Ph.D., professor.

Sayyidqosimov S.S.

- Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, professor of the Department of "Markscheidering and Geodesy", PhD., professor.

Tashpulatov S.A.

- Tashkent University of Architecture and Construction, professor of the Department of "Geodesy and Geoinformatics", candidate of technical sciences.

Musayev I.M.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, associate professor of "Geodesy and Geoinformatics" department, PhD.

Narbayev Sh.K.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers", National Research University, Dean of the Faculty of "Land Resources and Cadastre", Associate Professor, PhD.

Abduraxmonov S.N.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, associate professor of "Geodesy and Geoinformatics" department, PhD.

Inamov A.N.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, associate professor of "Geodesy and Geoinformatics" department, PhD.

Allanazarov O.R.

- Associate Professor of the Department of "Markscheidering and Geodesy" Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, Ph.D.

Reymov M.P.

- "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers" National Research University, associate professor of "Geodesy and Geoinformatics" department, Ph.D.

Avezov S.A.

- Associate Professor of Geodesy, Cartography, Geography Department of Urganch State University, Candidate of Geography, Associate Professor.

Composition of the editorial board:

Bela M.

- Professor of the Royal University of Hungary, DSc.

Godjamanov M.G.

- Baku State University, head of the "Geodesy and Cartography" department, doctor of technical sciences, professor.

Nilipovskiy V.I.

- Moscow State University of Land Management, vice-rector for international activities, doctor of technical sciences, professor.

Zagrebin G.I.

- Moscow State University of Geodesy and Cartography, Dean of the Faculty of Cartography, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor.

Zozulya V.V.

- Moscow State University of Geodesy and Cartography, Dean of the Faculty of Territorial Management, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor.

Lorant F.

- Budapest University of Technology and Economics - Professor of the Department of Geodetic Research, PhD.

Alizera Sh.

- Professor of the Department of Geodetic Engineering, Faculty of Civil Engineering, Teacher Training University named after Shahid Rajai, PhD.

Kostesha V.A.

- Head of the Department of Geodesy and Geoinformatics, Moscow State University of Land Management, Candidate of Technical Sciences, Associate Professor.

Oznamets V.V.

- Moscow State University of Geodesy and Cartography, head of the Department of Geodesy, doctor of technical sciences, professor.

Shokirov Sh.S.

- DSc, professor University of Maryland, USA.

The magazine started publishing in April 2023

It is published four times a year (Q4)

Permission №062656

Address: 100000, Tashkent, M.Ulugbek district, 39, Qori-Niyazi street.

Tel.: +998 90 974 91 49.

E-mail: u.muxtorov@tiame.uz

The author is responsible for the content of the published article and the correctness of the information contained in it.

Safarov Isoq Bozor o'g'li - Sakral-geografik tadqiqotlarning maqsadi va vazifalari	6
O.Sh.Rўziqulova, M.Xolmatov - Геоэкология ва аҳоли саломатлиги хариталарини яратишда ArcGis дастурини имкониятлари	11
Беканов Куатбай Кошкарбаевич, Мўминов Абдужалил Абдусалом ўғли, Очилов Шодикул Шамуродович, Атабаев Сарварбек Азадович - web-хариталар сериясини яратишнинг айрим масалалари.....	15
Усманов Юсуф Аликулович - Деградация харитасини яратиш технологиясини илмий-услубий асослари.....	20
Avilova N.F., Hayitov X.J. - Experience of designing irrigation canal routes in the global mapper software	27
Avilova N.F. - "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti assistenti.....	33
Nuratdinov Alisher Uzakbergenovich, Zafarjan Kannazarov Urazbaevich - Land use remote sensing and monitoring using gis technologies (in the example of the republic of karakalpakstan)	41
Karomatov Valixon Shabobo o'g'li, Egamova Dilchehra Adizovna, Umurzakova Shaxnoza Ashurbekovna - O'rmon yerlarining hisobini yuritishning mohiyati, tamoyillari va usullari	48
Бозорова Орзигул Рўзимуродовна, Норметова Насиба Миллавоевна - Подготовка студентов к профессиональной деятельности в цифровой образовательной среде путем непрерывного образования	54
Эркин Курбанович Юсупов - Роль и место сельскохозяйственной терминологии в повышении профессиональной компетентности узбекских студентов.....	60
M.N.Turdoliyev, N.Q.Komilova, E.E.Qobilov - Atmosfera havosi ifloslanishining inson salomatligiga ta'siri	66
Xurramova Nazira Xurram qizi - Factors affecting the transformation of the landscapes of the middle zarafshan basin.....	76
Egamova Dilchehra Adizovna, Karomatov Valixon Shabobo o'g'li, Norimboyev Humoyun Risqitilla o'g'li - Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini xususiylashtirishning birlamchi miqdorini hisoblash	81
Kh.Zh.Khayitov, S.S.Ibrokhimov - Improvement of methods of application of innovative technologies in the inventory of irrigated land areas	85
Karimbayev Qoylibay Konisbayevich - Amudaryoning qadimiy delta tekisligining voila landshaftlari.....	91
Fayzullayev Jaloliddin Karimovich, Xursanov Dunyobek Baxtiyorovich - Kattaqo'rg'on suv ombori ta'sirida yer osti sizot suvlarining o'zgarishi.....	96
Mamayusupov Jaloliddin O'rozali o'g'li, Ibragimov Oyatillo Shokirjon o'g'li, Norqobilov Isroil Sherqul o'g'li, Usmonov Ma'adir Axmadali o'g'li - Degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarning bugungi kundagi holati	101
Feruza Tohirova, Abduxalimov Lochinbek Mirodil ug'li - Qishloq xo'jalik yer maydonlarining sho'rlanish darajasi masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanib tahlili (Qashqadaryo viloyati Nishon tumani misolida)	106
Mulldjanova Gulnoza Muxiddinovna - Masofadan zondlash ma'lumotlari asosida yer sirtidagi o'zgarishlarni aniqlash va monitoring qilishning ahamiyati.....	112
Mohd Nazish Khan, Jurayev Jamshid Sunatilloevich - Appraisal of Desertification in Lower Zarafshan using Natural Difference Vegetation Index (NDVI).....	117

SAKRAL-GEOGRAFIK TADQIQOTLARNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Safarov Isoq Bozor o'g'li - Qarshi davlat universiteti Geografiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "sakral" tushunchasining mohiyati hamda geografiya va boshqa fanlar oraliq`ida shakllangan sakral geografiyaning obyekti, funksiyalari va vazifalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: sakral, sakral obyekt, sakral geografiya, tabiiy sakral obyekt, sakral geografiyaning obyekti.

Аннотация. в статье излагаются сущность понятия "сакральное", а также объект, функции и задачи сакральной географии, сформировавшейся между географии и других наук.

Ключевые слова: священный, священный объект, сакральная география, природный священный объект, объект сакральной географии.

Abstract. This article describes the essence of the concept of "sacred" and the object, functions, and tasks of sacred geography, which has formed at the intersection of geography and other disciplines.

Keywords: sacred", sacred object, sacred geography, object, functions and tasks of sacred geography.

Geografik g'oyalar bir necha ming yillik tarixiga ega va uni insoniyat tarixidan ajratib bo'lmaydi. Geografik tasavvurlar juda qadimda kishilarning amaliy faoliyatiga – ov, baliq ovi, ko'chmanchi chorvachilik, primitiv dehqonchilikka bog'liq holda paydo bo'ldi. Faktik (maishiy) bilimlarning doirasi inson faoliyatining sajiyasi va

bevosita tabiiy atrof bilan belgilangan. Makonda yo'l, ish bilish kuzatish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Kuzata bilish va ayrim faktlarni yaxshi bilish ularda tafakkurning rivojlanmaganligi bilan birga qo'shilgan. Shu sababli ko'plab tabiiy jarayonlar va hodisalarni (qurg'oqchilik, zilzilalar, toshqinlar va b.), insonning tug'ilishi va o'limini tushuntira olishmagan va buning oqibatida ular *anamizmda* (ruhlar va jon to'g'risida tasavvur) va *magiada* (sehrgarlik, jodugarlik, fusunkorlik) o'z ifodasini topdi. Ibtidoiy odamning narsalarning paydo bo'lishi to'g'risidagi tasavvuri fantastik bo'lgan va avloddan avlodga og'zaki shaklda etkazilgan. Bu tasavvur afsona (mif), ya'ni xudolar va afsonaviy qahramonlar to'g'risida, olamning paydo bo'lishi to'g'risida xalq rivoyatlari shaklini olgan.

Tabiat bilan hamjihatlikda yashagan odamlar tabiat hodisalarini ilohiylashtirgan, qadirlashgan va ularga sig'inishgan. Shu tufayli sayyoramizda sakral joylar, ya'ni xalqlarning individual va jamoaviy ongida beqiyos qiymatga ega bo'lgan alohida qadrlanadigan ko'plab obyektlar yuzaga kelgan.

Sakral obyektlar qadim zamonlardan buyon mavjud, ular hozirgi paytda ham turli xalqlarda mavjud. Sakral tasavvurlarga qadar ham bo'lgan. Gerodotning bizga qadar etib kelgan asarlarida Oykumena xalqlarining ko'pgina juda ahamiyatli va qadrlanadigan obyektlar (ibodatxonalar, noodatiy tabiiy

hodisalar, janglar va b.) to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

XX asrning so'ngi choragida olimlarning e'tibori asosan zamon kategoriyasidan makoniy yangicha "o'qish"ga o'tish tufayli sotsial-gumanitar sohada sodir bo'lgan makoniy burilish bilan bog'liq bo'ldi. Ukrainalik geograflar XX asrning 90-yillarning boshidan sakral geografiyaga jiddiy e'tibor qaratdilar. 1993-yilda O.Shabliy diniy jabhaning geografiyaviyligini isbot qilgan holda "sakral geografiya" terminini qo'llaydi[5]. Mavzuga doir masalaning echimida P.Shukanov, L. Shevchuk, O. Lyubimseva, K. Mezensev, S. Pavlov, I. Rovenchak, A. Kovalchuk va boshqalar faol bo'ldilar. Ukrainalik faylasuf Zavgorodniy Falak va Yer olamlari oralig'dagi o'lchovni tashkil etadigan biror-bir diniy-falsafiy an'ana doirasidagi muqadas joylar (sakral toposlar)ning iyerarxik jihatdan uyushtirilgan tarmog'ini tadqiqot obyekti sifatidagi sakral geografiya deb fikr bildiradi [4]. Rossiyalik geograflar N.Zamyatina va I. Mitin sakral geografiyani gumanitar geografiya yo'nalishlarining biri sifatida ajratadilar.

Sakral geografiya nisbatan yaqinda geografiyaning madaniyatshunoslik, tarix (arxeologiya) bilan tutashuvida shakllangan tushuncha va ilmiy yo'nalish bo'lib, uning o'rganish predmetini er yuzasining an'anaviy tabiiy komponentlari emas, balki an'anaviy fizikaviy komponentlariga ega bo'lgan geografik makon, aniqrog'i geografiyaning belgilar-simvolik jihatlari tashkil etadi.

Sakral geografiyaning shakllanishi sosial-gumanitar sohada makoniy burilish deb nomlanadigan XX asrning so'ngi choragida olimlarning e'tibori zamon kategoriyasini tadqiq qilishdan

makonni yangicha "o'qish"ga o'tish bilan bog'liq bo'ldi. Sakral geografiyaga doir yozilgan ishlarning ko'pida u mazmuniga ko'ra batamom kulturologik soha bo'lib, badiiy ijodiyot, diniy san'at va diniy falsafa, madaniy tarixiy tadqiqotlarni sintez qiladi. Zero, dinning o'zi insoniyat ma'naviy madaniyatning eng muhim jabhalaridan biri hisoblanadi, uning mavjudligi (faoliyati) – bu dastavval ishlab chiqarish va sakral xizmatlarni iste'moli. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o'rganishning istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda.

Sayyoramizdagi bunday meroslarni o'rganish va asrash, diniy qarashlar yangi integral ilmiy yo'nalishni - sakral geografiyani (*sacred geography, сакральная география*) shakllantirdi. Uning o'rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning kishilari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir. Ular – xudo irodasi bilan biror-bir hodisa sodir bo'lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo'qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko'p yillik ziyoratgohlar va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko'rinmas kuchlari yaratgan unikal landshatlardir [1].

Sakral-geografik tadqiqotlarning ko'pida sakral geografiya mazmuniga ko'ra batamom kulturologik soha bo'lib, muayyan hududga mansub bo'lgan badiiy ijodiyot, diniy san'at va diniy falsafa, madaniy tarixiy tadqiqotlarni sintez qiladi. Integrativ fan sifatida uning predmetini Yer yuzasining an'anaviy fizikaviy komponentlari majmuasi sifatidagi geografik makon emas, balki aynan geografiyaning belgilar-ramziy

(simvolik) jihatlar yoki sakral landshaftlar tashkil etadi.

Turli geografik obyektlar, muayyan sotsial-madaniy borliqqa, aynan muqaddaslik toifasiga ega bo'lgan geografik makonning o'zaro nisbati to'g'risidagi bilimlar tizimi bo'lgan sakral geografiya – muqaddas, alohida e'zozlanadigan (qadrlanadigan) joylarni, kishilarning muayyan hamjamiyati nazarida ilohiy ahamiyat kasb etadigan diniy yodgorliklarni, makoniy tasavvurlarning ayrim turlarini (sistemalarini) – diniy sistemalaridagi makoniy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o'rganadi. Diniy hayotni va faoliyatni, umuman olganda diniy sohani hududiy uyushtirish sakral geografiyaning predmetidir. Bunday uyushtirishning geomakoniy shakllari, xususan, ularning mifologiyasi, mazmuni, genezisi, dinamikasi, shakllanishining omillari va qonunlari tadqiqotning aniq real ob'ektlaridir. Eng muhim muammolardan birini muayyan hududda (mamlakatda) diniy vaziyatning shakllanishining tarixiy-geografik jihatlarini o'rganish tashkil etadi. Sakral maqomga ega bo'lgan geografik obyektlar jumlasiga benazir kishilarning hayoti va tarixiy voqealar bilan bog'liq joylar, memoriallar, madaniy qadriyatlar (muzey, kutubxona), mashhur tabiiy urochishalar, nufuzli o'quv yurtlari ham qaralishi mumkin. Jahonning deyarli barcha xalqlarida qadim zamonlardan buyon muqaddas va mu'tabar qadamjolar maqomiga ega bo'lgan obyektlar mavjud. Ularga nafaqat me'moriy obyektlar qabristonlar, ibodat joylari, ehromlar, balki tog'lar, daraxtzorlar, g'orlar, buloqlar, ko'llar, daryolar, hatto ayrim daraxtlar va toshlar ham mansub. Diniy marosimlar o'tkaziladigan joylar, va davlat hokimiyatining

simvollari va boshqa muqaddas hisoblash mumkin bo'lgan bir xil sotsial-psixologik mexanizm tufayli muqaddaslik toifasiga kiritish mumkin va ular "alohida ahamiyat"ga ega bo'ladi.

Sakral-geografik tadqiqotlarda geografiyada muqaddas joylar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zining maqomi tufayli muqaddas hudud alohida o'zgacha, "ilohiy" xususiyatli makon sifatida qaraladi. Xususan, bu erda oliy kuchlarning amr-istagi namoyon bo'lishi, oliy haqiqat amalga oshishi mumkin. Muayyan vaqt davomida oddiy, odatiy bo'lgan makon ancha yuqori, sakral maqom oladi. Sakral makon tushunchasi muayyan hududning o'zgarishi g'oyasini nazarda tutadi, unga alohida mazmun beradi, boshqacha aytganda atrof odatiy makondan ajralishiga olib keladi. Bu joy energiyaning tugamaydigan manbaiga aylanadi, unga kira olsa, uni tushunib etsa, bu kuchdan foydalana olsa, muqaddaslik – ma'naviylikka kirishga imkon beradi. Muqaddaslik tushunchasi eng avvalo din va uning bevosita mistikaga taalluqli tomoni bilan bog'liq. Muqaddaslik deyarli hamma vaqt transtsedentlik (haddan tashqarilik), mistik (tasavvuf) va sir bilan bog'liq.

Sakral-geografik tadqiqotlarda e'tibor urning bir xil emasligi – "olamning markazi", "makonning o'qlari" va "sakral zonalar"ning mavjudligi to'g'risida so'z yuritadi. Shuningdek, ichki va tashqi ziyorat (muqaddas joylarni ziyorat qilish) va bilib olish turizmini rivojlantirish, aloqalarni mustahkamlash, salomatlikni va kishilarning ma'naviy hayotini yaxshilash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sakral geografiyaning vazifalaridan biridir. Sakral geografiya, ya'ni diniy qadrga ega bo'lgan joylar va obyektlar majmuasi.

Sakral obyektlar turli xalqlarda bebaho qadriyatga ega bo'lgan muqaddas obyektlardir. Ularning barchasi ham albatta diniy obyektlar emas, ular me'moriy obyektlar (binolarning xarobalari, mozarlar, ibodatxonalar, madaniy-tarixiy meroslarning yodgorliklar) va tabiiy obyektlar (tog'lar, g'orlar, daryolar, daraxtzorlar, qoyalar va b.) bo'lishi mumkin. Shu sababli sakral geografiya tabiiy, madaniy va tarixiy merosning qadrlanadigan va muqaddas obyektlari to'g'risidagi tarixiy-geografik bilimlar tizimidir. Sakral-geografik tadqiqotlarning e'tiborida bu obyektlarning xillarini, ularning joylanishini, vujudga kelishi tarixi, xalqlar hayotidagi ahamiyatini o'rganish turadi.

Sakral geografiya integral fan sifatida ko'pgina mamlakatlarda sekin-asta tadqiqotning alohida, mustaqil sohasiga aylanib bormoqda, sakral geografik tadqiqotlar esa tobora dolzarblashmoqda. Sakral geografiya – geografiya fanlari tizimida rivojlanayotgan ilmiy yo'nalish bo'lib, ichki va tashqi ziyoratchilik (muqaddas joylarni ziyorat qilish) va bilib olish turizmini rivojlantirish, aloqalarni mustahkamlash, salomatlikni va kishilarning ma'naviy hayotini yaxshilash, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uning vazifalaridan biridir.

Sakral-geografik tadqiqotlar so'ngi yillarda dunyoda katta e'tibor qozonmoqda. Yevropada "sakral turizm"ning kuchli oqimini yuzaga keltirgan o'nlab yo'l ko'rsatkichlar nashr etildi. Turli mamlakatlarda olib borilayotgan tadqiqotlar sakral geografiyani o'rganishning istiqbolli ekanligini ko'rsatadi. Bunda sakral landshaftlarni tadqiq qilish ularni tabiiy kuchlar va antropogen faoliyatning barqaror o'zaro aloqasi va o'zaro taqozasi natijasida tarkib topgan

tabiiy-madaniy tabiat komplekslari – tabiat va insonning yaratmasi sifatidagi tushunchaga Sakral landshaftlarni tashkil etuvchi turli komponentlarni ularni ilmiy o'rganish hamda mahalliy aholining ular to'g'risidagi tasavvurlarga natijasida olingan bilimlarga asoslanmog'i lozim.

Yaqin o'tmishda sakral geografiyani tadqiq qilish va muqaddas joylarni ziyorat qilish (diniy sayohat) sobiq Ittifoqda ideologik jihatdan zararli deb hisoblanar edi, shu sababli ilmiy doiralarda katta qiziqishga ega bo'lmagan. Odatda, ma'naviy hayotning bu muhim qismi tanqid qilinar, jiddiy o'rganilmas edi. SSSRda bu yo'nalish umuman yo'q edi, genetika va kibernetika kabi unga ham omad bo'lmadi.

XX asrning oxiridan boshlab hududni sakral geografik jihatdan o'rganishga MDHning bir qator davlatlarida ko'pgina tadqiqotchilar, shu jumladan geograflar ham e'tibor qaratdilar; sakral geografiyaga va ziyoratchilikka qiziqish oshgan. Sobiq SSSRda sakral geografiya ilmiy yo'nalish sifatida batamom mavjud emas edi. Ateistik mustabidlikdan ozod bo'lgandan keyin Rossiya federatsiyasi, Belarus, Gruziya, Qozog'iston, Qirg'ziston, Tojikiston, Ukraina kabi mamlakatlarda sakral-geografik tadqiqotlarga qiziqish ortdi. Masalan, Qirg'istonda sakral joylar kartasi tuzildi, unga 1100 dan ziyod sakral joylar kiritildi, Qozog'istonda uch tilda Qozog'istonning sakral obyektlari to'g'risida kitoblar nashr etildi. "Qozog'istonning umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan sakral obyektlari" kitobida tabiiy merosning alohida qadrlanadigan yodgorliklari, arxeologik yodgorliklar va o'rta asr shahar markazlari, sig'iniladigan joylar bo'lgan diniy va kult obyektlari, tarixiy shaxslar bilan bog'liq bo'lgan sakral joylar va tarixiy va siyosiy

voqealar bilan bogʻliq boʻlgan 185 ta sakral joylar tavsiflangan. Qozogʻistonda “Sakral Qozogʻiston” ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etilgan. Ammo Yevropa va boshqa mamlakatlardagiga nisbatan bu mamlakatlarda sakral geografik tadqiqotlar ancha past.

Oʻzbekistonda xalqaro va hatto umumjahon ahamiyatiga ega boʻlgan sakral joylar koʻp. Oʻnlab mahalliy sakral ahamiyatga ega boʻlgan joylar ham bor. Oʻzbekistonda dunyo dinlarining bevosita asoschilari va ularning hayoti bogʻliq joylar yoʻq, ammo xalqaro va hatto umumjahon, oʻnlab mahalliy ahamiyatga ega boʻlgan sakral joylar koʻp. Bunga Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Zangi ota, At-Termiziy Imam Al-Maturudi dafn etilgan joylarni misol qilib koʻrsatish mumkin. Oʻnlab ziyoratgohlar xalqimizning tarixiy-madaniy obidalari sifatida saqlanib kelinmoqda. Bu ziyoratgohlar bugun nafaqat yurtimiz, balki butun dunyo musulmonlarining muqaddas qadamjolari hisoblanadi.

Sakral geografiya Yerning bir xil emasligi – “olamning markazi”, “makonning oʻqlari” va “sakral zonalar”ning mavjudligi toʻgʻrisida soʻz yuritadi. Sakral geografiya, yaʼni diniy qadrga ega boʻlgan joylar va obʼektlar majmuasi.

Shunday qilib, tabiiy, madaniy va tarixiy merosning alohida qadrlanadigan va muqaddas obyektlari toʻgʻrisidagi tarixiy - geografik bilimlar tizimi boʻlgan sakral geografiya – bu inson ongi orqali transsendent tushunchalar, kategoriyalar va simvollarga ega boʻlgan geografik obyektlarning (real va faraziy, tasavvur qilingan) oʻzaro nisbati (bogʻlanishi) toʻgʻrisida hosil boʻlgan tasavvurlar. Uning predmetini

simvallashtirish yoʻli bilan hosil boʻlgan sakral makon tashkil etadi. Bu landshaftda oʻzgacha reallikni – fikrlar va arxetiplar dunyosini aks ettirish imkonini beradi[2]. Sakral – geografik obyektlar tabiat va madaniyatning birgalikdagi fenomeni, kishilar ziyorat qiladigan tabarruk va muqaddas hududlarning birikmasidir. Quruqlik va suvning qismlari (uchastkalari), qurilishlar va mahalliy kishilar ongida muqaddaslik sajiyasiga ega boʻlgan narsalar shunday joylardir. Sakral joylar ziyorat qilish fenomeni mamlakatda keng tarqalgan ritual amaldir.

FOYDALANILGAN DABIYOTLAR

1. Abdullayev S.I., Jankabilov I.X., Nazarov M.G. Sakral geografiya - yangi integral ilmiy yoʻnalish // Oʻzbekiston geografiya jamiyati axboroti. T., 2017.
2. Воловик В.Н. Категория сакрального ландшафта. Географический вестник. 2013. 4(27). С.27.
3. Гурова И.В. Сакральная география и религиозный туризм. – Екатеринбург: Медикус. 2015. – С. 30-37.
4. Шаблий О. Общественная география: теория, история, страноведческие студии. – М.: Комета, 2009. – 324 с.
5. Шуканов П., Шуканова А. Сакрально-наукови основи освітнього процесу/ Имидж с учасного педагога. – Полтава, 2012. - №3 (122). С. 3-6.
6. Ismatovich A. S., Bozor oʻgʻli S. I. Sakral geografiyaning predmeti xususida //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 11. – С. 203-207.

ГЕОЭКОЛОГИЯ ВА АҲОЛИ САЛОМАТЛИГИ ХАРИТАЛАРИНИ ЯРАТИШДА ArcGIS ДАСТУРИНИ ИМКОНияТЛАРИ

О.Ш.Рўзиқулова– «ТИҚХММИ» МТУ, Геодезия ва геоинформатика кафедраси доценти

М.Холматов– «ТИҚХММИ» МТУ, талаба

Annotatsiya. Мақолада геоэкология ва аҳоли саломатлигига алоқадорлиги асосланган. Тиббий географик хариталарни яратишда ArcGIS дастурини имкониятлари очиб берилган. Тошкент шаҳрида янгидан пайдо бўлган ўсмалар билан касалланган аҳоли тарқалган ҳудудлар харитаси ArcGIS дастурида тузилган. Дастурни имкониятлари, тиббий хариталарни тузиш афзаллиги ва қулайликлари ҳамда техник жиҳатлари ёритилган.

Тошкент шаҳрида янгидан пайдо бўлган ўсма касаллиги билан биринчи марта рўйхатга олинган аҳолини геоэкологик ҳолатига кўра баҳолаш ишлари ҳам амалга оширилган. Ранг танлашда ҳудудларнинг хусусиятлари ва касалланганларни учрашига кўра 5 та категорияда баҳоланди.

Kalit so'zlar: Геоэкология, хавфли ўсмалар, тиббий география, хариталаштириш, ArcGIS дастури, баҳолаш.

Анотация. Статъя основана на геоэкологии и вовлеченности в общественное здравоохранение. Раскрываются возможности программы ArcGIS при создании медико-географических карт. В программе ArcGIS составлена карта регионов

проживания населения с вновь возникающими опухолями в городе Ташкенте.

Описаны возможности программы, преимущества и удобство составления медицинских карт, а также технические аспекты.

В Ташкенте также была проведена работа по оценке населения, впервые зарегистрированного с новым опухолевым заболеванием, в зависимости от его геоэкологического состояния. При выборе цвета он был оценен по 5 категориям в соответствии с особенностями регионов и распространенностью инфицированных.

Ключевые слова: Геоэкология, злокачественные опухоли, медицинская география, картографирование, программа ArcGIS, оценка.

Abstract: The article is based on the relevance of geoecology and public health. The capabilities of the ArcGIS program in creating medical geographic maps are revealed. The map of the areas of distribution of the population infected with new tumors in the city of Tashkent was created in the ArcGIS program. The capabilities of the program, the advantages and conveniences of creating medical

maps, and the technical aspects are covered.

In the city of Tashkent, the population registered for the first time with a new tumor disease was evaluated according to their geoecological status. The color selection was evaluated in 5 categories according to the characteristics of the regions and the number of patients.

Key words: Geoecology, malignant tumors, medical geography, mapping, ArcGIS software, assessment.

Kirish

Аҳоли саломатлиги жамият тараққиётининг ҳар бир даври учун кечиктириб бўлмайдиган муҳим масалалардан бири ҳисобланади. Зеро, ҳар қандай мамлакатнинг ривожланганлик ҳолати мазкур ҳудудда яшовчи аҳолининг саломатлик ва саводхонлик даражаси билан белгиланади. Айнан шу икки кўрсаткич давлатларнинг жаҳон ҳамжамиятида тутган ўрни ва инсон салоҳиятини ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ифодалайди [1]. Шундай экан аҳоли саломатлиги ва атроф муҳит муносабатларини хариталаштириш муҳим масалалардан ҳисобланади.

Геоэкология – “гео”-ер, “ойкос”-уй, жой. Ер экологияси, ерни ўраб олган муҳит билан Ерни ўзаро таъсир ва алоқадорликларини тушунамиз. Экологиянинг юқори босқичдаги экосистемаларини, шу жумладан биосферани ўрганувчи фан тармоғи ҳисобланади. Геоэкология (ландшафт экологияси, географик экология) XX асрнинг 30-йилларида немис олими К.Тролл томонидан таклиф қилинган. Тармоқлараро фан

сифатида 1990-йиллардан шакллана бошлади.

Геоэкология табиий ва инсон томонидан ўзгартирилган юқори босқичдаги экосистемаларнинг таркиби, структураси, мавжуд бўлиш қонуниятлари ва эволюциясини ўрганади. Ернинг экологик муаммолари тўғрисидаги барча билимларни жамлайди ва табиий фанлар, хусусан биология, география, геология фанлари тадқиқот натижаларидан фойдаланади.

Фанни асосий мақсади Ерда ҳаётни таъминловчи муҳитни имкон даражасида сақлаб қолишга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир (ЎзМЭ, 2-жилд, 650-бет [3].

Геоэкология ҳудудда тирик организм (шу жумладан инсон)нинг атроф муҳит билан бўлган ўзаро алоқасини ўрганади. Бу жиҳатдан Геоэкология географик (ҳудудий) ва экологик (системали субъект – муҳит) тадқиқот турини ўз ичига олади. Ҳудудларда экологик вазиятлар қаноатланарли даражадан фалокат даражасигача ўзгариши мумкин.

Геоэкология – муайян геотизимларда организмлар ўзаро ва уларни ўраб турувчи атроф табиий муҳити ўртасидаги алоқадорлик қонун ва қонуниятларини тадқиқ қилувчи фан соҳаси, унга оид билим, кўникма, малака, яъни компетентлик даражасини берувчи таълим йўналиши ҳамда ушбу алоқадорлик муносабатларини оптималлаштирувчи амалиёт тармоғи.

Геоэкологияда геотизимлар организмларнинг яшаш муҳити деб қаралади. Шунинг учун ҳам геоэкологиянинг объекти –

геотизимлар ҳисобланади. Географик тадқиқотлар айнан ушбу геотизимлар доирасида тадқиқ қилиниши мақсадга мувофиқ. Геоэкологиянинг ўрганиш ёки тадқиқ қилиш предметида организмлар, жумладан, инсонларнинг геотизимлар доирасида ўзаро ва уларни ўраб турувчи атроф-муҳит ўртасидаги муносабатларининг табиий, иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва ҳаттоки, ҳуқуқий жиҳатларининг ҳудудийлик, мажмуалилик (комплекслилик) ва даврийлик жиҳатлари тадқиқ этилади.

Геоэкологиянинг ўзгариши инсонлар саломатлигига ҳам сезиларли даражада салбий таъсир этиб, турли касалликларни ортиб кетишига олиб келмоқда. Жумладан саратон касаллигини келтириб чиқарувчи сабаблар сифатида табиий шароитни ўзгариши ҳам бир омил сифатида қаралади. Саратонни ўрганиш бўйича ҳалқаро агентлиги (IARC-International agency for research of cancer) маълумотларига кўра, дунёда хавфли ўсмалар билан касалланиш ҳозирги кунда 1 йилда 18 млндан 2030 йилга келиб 30 млнга кўпайиши кутилмоқда. Шу билан бирга касалликдан ўлим даражаси йилига 9 млн дан 12 млнга кўпаймоқда [5].

Н.Комилова ва бошқаларнинг маълумотига кўра, хорижий мамлакатлар аҳоли саломатлиги ва соғлиқни сақлаш тизимини такомиллаштиришда сезиларли ютуқларга эришди. Тадқиқотдаги таҳлиллар турли мамлакатларнинг аҳоли саломатлиги ва тиббий ёрдам кўрсатишни яхшилаш ва ёрдам кўрсатишни яхшилаш бўйича тажриба ва амалиётларни ўрганишга, уларнинг ёндошувлари

ва стратегияларини илмий тушунишга қаратилган [2].

Ўзбекистонда ҳам хавфли ўсма-саратон касаллиги сабабли ўлганлар сони 2019 йил 15347 киши, 2020 йил 13944, 2021 йил 13575 киши, 2022 йил 13836 кишини ташкил этган (Ўзбекистон соғлиқни сақлаш, статистик тўплами, 2023 йил, 1-жадвал) [4].

1-жадвал

Худудлар бўйича аҳолининг хавфли ўсма касалликларига чалиниши (беморларда биринчи маротаба ташҳиси билан рўйхатга олинган касалликлар сони)

	Минг ҳолат						100 000 аҳолига					
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Ўзбекистон Республикаси	25197	23859	24648	22050	25578	26471	77,8	72,4	73,4	64,4	73,3	74,3
Вилоятлар мисолида												
Сирдарё	370	400	373	297	531	425	45,7	48,6	44,5	34,8	61,1	47,9
Тошкент	2295	2326	2522	2064	2472	2555	80,7	80,8	86,4	70,0	84,8	86,1
Фарғона	2218	2281	2457	2426	2616	2694	61,7	62,5	66,1	64,1	67,8	68,4
Тошкент шаҳри	4076	4387	4327	3544	4465	4308	166,7	176,4	170,3	134,1	158,3	148,1

Саратон касаллигини турлари кўп бўлиб, умумий ҳолат Ўзбекистон республикасида ва Тошкент, Сирдарё, Фарғона вилоятларитва Тошкент шаҳри мисолида таҳлили келтирилди. Худудларда кузатилган ҳолатларини статистик тўплам маълумотлари асосида хариталаштирилди.

Жадвал маълумотларини таҳлил қиладиган бўлсак, Сирдарё вилоятида хавфли ўсма касаллиги балан биринчи марта саратон ташҳиси қўйилган беморлар сони 2022 йилга келиб, камайган бўлса, Тошкент, Фарғона вилоятларида ва Тошкент шаҳрида асосан ортганини кўришимиз мумкин. Тошкент шаҳрини туманларида ҳам янгидан пайдо бўлган ўсмалар Чилонзор туманида кескин ортганини кўрсатади. Мирзо Улуғбек, Миробод, Учтепа ва Яшнобод

туманларида ўсиш кузатилмаган бўлсада, аҳвол ёмонлигича қолмоқда (2-жадвал).

Тошкент шаҳрини туманлари орасида Янгиҳаёт, Яккасарой, Юнусобод, Шайхонтохур, Сергели кабиларда аҳвол қониқарли ҳолатда бўлсада, янгидан пайдо бўлган ўсма касалликлари учраб турибти.

2-жадвал


Тошкент шаҳрида **янги пайдо бўлган ўсмалар**
2020-2022 йиллар

Тошкент шаҳри	15580 (2020)	Тошкент шаҳри	16470 (2021)	Тошкент шаҳри	11602 (2022)
шу жумладан туманлар:		шу жумладан туманлар:		шу жумладан туманлар:	
Олмазор	2259	Олмазор	553	Олмазор	561
Бектемир	2808	Бектемир	217	Бектемир	366
Миробод	2424	Миробод	1641	Миробод	1047
Мирзо-Улуғбек	1161	Мирзо-Улуғбек	1306	Мирзо-Улуғбек	1198
Сергели	393	Сергели	357	Сергели	367
Учтепа	1277	Учтепа	7315	Учтепа	1004
Чилонзор	967	Чилонзор	646	Чилонзор	3724
Шайхонтохур	1260	Шайхонтохур	721	Шайхонтохур	812
Юнусобод	1022	Юнусобод	601	Юнусобод	875
Яккасарой	975	Яккасарой	573	Яккасарой	407
Яшнобод	1034	Яшнобод	749	Яшнобод	1000
		Янгиҳаёт	1791	Янгиҳаёт	241

Тошкент шаҳрида янгидан пайдо бўлган ўсма касалликлари билан биринчи марта рўйхатга олинган беморлар сонини хариталашда 5 гуруҳга бўлиб, ранг танланди ва геоэкологик ҳолат баҳоланди. Касалликлар энг кўп қайд этилган Чилонзор тумани энг тўқ сиёҳ ранг танланди. Бошқа туманларга нисбатан аҳвол кескинлиги билан ажраб турибти. Геоэкологик ҳолат 1. Жуда ёмонга баҳоланди. 2. Яшнобод туманида ўтган йилга нисбатан касалланган сони сезиларли ортган, ҳолат-ёмон деб баҳоланди. 3. Миробод, Мирзо Улуғбек ва Учтепа туманларида касалликлар ўтган йилга нисбатан кам учраган бўлсада, ҳамон нисбатан кўплигича қолмоқда,

баҳоси-ёмонроқ. 4. Олмазор, Бектемир ва Шайхонтохур, Юнусобод, Сергели туманларида касалланганлар бор, баҳоси-яхши эмас. 5. Яккасарой ва Янгиҳаёт туманларида -касалланганлар учрайди, геоэкологик баҳоси - ёмон эмас.

Юқоридаги 5 та кўрсаткич бўйича ранглар танланди (харитага қаранг).



1-расм. Тошкент шаҳрида 2022 йил янгидан пайдо бўлган ўсма касалликлари харитаси

Бундан ташқари Олмазор, Бектемир ва Учтепа туманларида олдинги йилларда касалланганлар сони жуда юқори қайд этилган бўлсада, 2022 йилда нисбатан камайганлиги ҳам қувонарли ҳол.

Тавсиялар сифатида ArcGIS дастурини имкониятлари кенглигини таъкидлаб, тиббий-географик хариталарни яратишдаги қулайлигини таъкидлаш ўринли. Координаталарга боғланиши, маълумотлар базасини янгилаб бориш, ранг танлаш ва бошқаларда.

Хулоса қилиб, ArcGIS дастурида тиббий-географик хариталар яратишда статистик маълумотлардан фойдаланиш, солиштириш, мавжуд геоэкологик ҳолатни баҳолаш имкониятлари кенглигини айтиб ўтиш мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Комилова Н.Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари, Монография, “Шарқ”-2015 йил, 300 бет.

2. Комилова Н., Berdiyev G', Ahmadjonov I Karimov Sh. Aholi salomatligi va sog'liqni saqlash

tizimini yaxshilashda horijiy mamlakatlar tajribasi. Педагог республика илмий журналы, 6 – ТОМ 6 – SON / 2023 - YIL / 15 – IYUN. 112-117 бетлар.

3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2-жилд, 650-бет.

4. Ўзбекистон республикаси президенти ҳузуридаги статистика агентлиги тўплами, 2023 йил.

UUK: 528.8:631.55

WEB-ХАРИТАЛАР СЕРИЯСИНИ ЯРАТИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ

(Қорақалпоғистон Республикаси ер ресурслари мисолида)

Беканов Куатбай Кошкарбаевич - ЎзМУ “Картография” кафедраси катта ўқитувчиси, г.ф.ф.д. PhD

Мўминов Абдужалил Абдусалом ўғли – Алфраганус нодавлат университети “Умумқасбий фанлар” кафедраси доц. в.б., г.ф.ф.д. PhD

Очилов Шодикул Шамуродович - ЎзМУ “Картография” кафедраси катта ўқитувчиси

Атабаев Сарварбек Азадович – ЎзМУ “Картография” кафедраси ўқитувчиси

Annotatsiya.

Мақолада Қорақалпоғистон Республикасининг ер ресурслар ҳолатини акс эттирувчи web-хариталар серияси ArcGIS Online ва Story Map Series дастурлари асосида яратиш масалалари кўриб чиқилган. Ушбу web-хариталар ерлардан самарали фойдаланишдаги кўплаб муаммоларни масофадан туриб ҳал қилишга имкон беради, шунингдек, фойдаланувчилар томонидан ҳудуднинг ер ресурслари ҳолати бўйича тезкор маълумотларни олиш ва шу асосида ерлардан фойдаланиш бўйича оптимал қарорлар қабул қилиш бирмунча қулайликлар яратади.

Kalit so'zlar: web-хариталар, Story Map Series, ArcGIS Online, ер ресурслари, оптимал, ГАТ, shapefile.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы создания серии веб-карт, отражающих

состояние земельных ресурсов Республики Каракалпакстан на базе программ ArcGIS Online и Story Map Series. Эти веб-карты позволяют удаленно решать многие проблемы эффективного землепользования, а также помогают пользователям оперативно получать информацию о состоянии земельных ресурсов территории и на основе этого принимать оптимальные решения по землепользованию.

Ключевые слова: веб-карты, Story Map Series, ArcGIS Online, земельные ресурсы, оптимальные, ГИС, шейп-файл.

Abstract. The article examines the issues of creating a series of web maps reflecting the state of land resources of the Republic of Karakalpakstan based on ArcGIS Online and Story Map Series programs. These web maps allow remotely

solving many problems of efficient land use, and also help users quickly obtain information on the state of land resources of the territory and, based on this, make optimal decisions on land use.

Key words: *web maps, Story Map Series, ArcGIS Online, land resources, optimal, GIS, shapefile.*

Кириш

Қорақалпоғистон Республикасининг мураккаб экологик шароитдаги қишлоқ хўжалиги ерларидан фойдаланишни оптималлаштиришда табиий ресурслар, ер ресурслари web-хариталари муҳим роль ўйнайди. Улар табиатни муҳофаза қилишда, қишлоқ хўжалиги соҳаларини тўғри жойлаштиришда, суғориб экин экиладиган ерлардан фойдаланишда, чўл ҳудудларда, яйлов чорвачилигини ташкил қилишда, ерлардан самарали фойдаланишни йўлга қўйишда асосий маълумотнома бўлиб хизмат қилади.

Муаммонинг ўрганилганлиги. Жаҳонда web-хариталарини шакиллантириш бўйича А. М. Берлянт, А. В. Кошкарев, R.G.Burns, D. Kuria, D. Ngari, E. Withaka, M.Tsou, Ўзбекистонда Э.Ю.Сафаров, Р.Ойматов, Д.Рахмонов ва бошқа олимларнинг илмий ишларида тадқиқ этилган. Аммо юқорида келтирилган олимлар ва тадқиқотчилар ишларида “Ер ресурслар” web-хариталарини тузиш услубини ишлаб чиқиш бўйича тадқиқот ишлари олиб борилмаган.

Ишнинг мақсади ва вазифалари. Мазкур тадқиқот ишининг асосий мақсади Қорақалпоғистон Республикасининг ер ресурслар ҳолатини акс

этирувчи web-хариталар серияси ArcGIS Online ва Story Map Series дастурлари асосида яратишдан иборат.

Қорақалпоғистон Республикасининг ер ресурслар ҳолатини акс этирувчи web-хариталар серияси яратишда қуйидаги вазифалар белгиланди ва ўз ечимини топди:

1) дала тадқиқот ишлари натижасида тўпланган маълумотларни ArcGIS дастурига юклаш;

2) Қорақалпоғистон Республикаси ер ресурслари мавзули қатламларни ArcGIS Online дастурига киритиш;


3) web дастурларнинг стандарт тўпламидан тадқиқот давомида тайёрланган хариталарни намойиш қилишга мос келадиган web дастур танланлаш;

4) Story MAP Series web иловасида хариталар компоновкасини ишлаб чиқиш ва ишчи ҳолатига келтириш.

Асосий натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Ҳозирги кунда дунё миқёсида ГАТ технологияларининг web-хариталаридан фойдаланиш оммалашмоқда [2; 484-б.]. Web-хариталар қоғоз шаклдаги хариталарга қараганда ўзининг иқтисодий тежамкорлиги, фойдаланувчиларга қулайлиги, маълумотларни олиш осонлиги, интерактивлиги билан ажралиб туради [1; 69-75-б, 5; 69-75-б.].


Web-харита – бу маълумотларни тақдим қилиш ёки саволларга жавоб бериш учун фойдаланиш мумкин бўлган географик маълумотларнинг интерактив ҳолдаги тасвири ҳисобланади [6; 250-257-б.].

ArcGIS Online дастури орқали қуйидаги саволларга жавоб берадиган web-хариталарни яратиш имконияти мавжуд: Оролбўйи Қорақалоғистон ҳудудининг ерлардан фойдаланиш ҳолати, тупроқларнинг мелиоратив ҳолати, сув ресурслари, қишлоқ хўжалиги меҳнат ресурслари, қишлоқ хўжалиги ерларининг самарадорлиги ва бошқалар. Тадқиқот давомида ArcGIS Online дастури web-хариталарни тузиш, web шаклда нашр қилиш учун, Story MAP Series web иловасидан фойдаланилди. Story MAP Series web иловаси орқали қатор илмий ишлар натижаларини тақдим этишда ва фойдаланувчиларга ахборотларни осон тушунишда web иловаси самарали ҳисобланади [3; 185-193-б, 7; 15-19-б.]. Қуйидаги 1-расмда ГАТ технологиялари орқали web-хариталар яратиш технологияси ишлаб чиқилган.



Ушбу технологияда дала тадқиқот ишлари натижасида тўпланган маълумотлар, статистик маълумотлар, объект бўйича топографик хариталар ва космик суратлар тўпланади ва улар ArcGIS дастурига юкланди. Сўнгра хаританинг математик асоси танланди, картографик проекция ва координаталар тизимини танлаш жараёни, хаританинг мақсади, географик асос ҳамда мавжуд маълумотлар кўламига боғлиқ ҳисобланади.


Ушбу ишда географик асос сифатида Қорақалпоғистон Республикаси 1:1 000 000 масштаби маъмурий харитасидан фойдаланилди. Харита Гаусс-Крюгер проекциясида ва Пулково 1942 координата тизимида тузилган. Харитани фазовий боғлашда 6 та таянч нуқталарни координаталарига асосланиб боғланди (27-расм) [4; 13-19-б.].



27-расм. Растрни фазовий боғлаш жараёни


Таянч нуқталар сифатида координаталар тўр чизиқларининг кесишиш нуқталари, ердан фойдаланиш чегараларининг ва дарёларнинг бурилиш нуқталари ёки аҳоли яшаш пунктлари қабул қилиниши мумкин. ArcGIS Online дастурига мавзули қатламларни қўшиш ишлари амалга оширилди. ArcGIS Online дастурига мавзули қатламларни қўшиш ишлари бир нечта усуллар орқали амалга оширилади, ёки файллар орқали мавзули қатламлар қўшилади. Ушбу тадқиқотда *shapefile* форматларидан фойдаланилди. Бунда объект тўғрисидаги мавзули қатламлар – чизиқли, майдонли ва нуқтали қатламларни *shapefile* форматига айлантирган ҳолда барча қатламларни янги папкага олиб, ZIP архиви ҳолатида келтирилди, сўнгра ArcGIS Online дастурига импорт қилинди (3-расм).

илк бор ишлаб чиқиш жараёни келтирилган.



6-расм. Web хариталар макет компоновкасини ишлаб чиқиш иловаси

Хариталарни web шаклда нашр қилишда Esri Story Maps Series шаблонларидан фойдаланилади. Web-хариталарни автоматик равишда намоиш қилиш учун autoplay режими қўлланилди. Яратилган web-хариталарни интернетда намоиш қилишда, асосан 3 хил ҳолат мавжуд, улар ҳамма фойдаланувчиларга айрим фойдаланувчиларга учун ва яқка тартибда фойдаланишга мужалланган. Ушбу тадқиқотда web-хариталарни намоиш қилишда ҳамма учун очиқ ҳолда намоиш қилиш тартиби олинган ва унга махсус меню киритилди [8]. Қорақалпоғистон Республикаси ер ресурслари web-хариталар сериясини намоиш қилиш ойнаси қуйидаги 6-расмда келтирилган.



6-расм. Қорақалпоғистон Республикаси ер ресурслари web-хариталар сериясининг ишчи ойнаси

Хулоса

Ушбу

тадқиқотда

Қорақалпоғистон Республикаси ер ресурслари ҳолатини акс эттирувчи web-хариталар серияси ГАТ технологиялари асосида яратилган. Ушбу яратилган хариталар ArcGIS 10.6 ва ArcGIS online дастурида таҳрир қилиниб, Story MAP Series web иловаси орқали тасвирланди. Web-хариталар асосида ерлардан фойдаланишни оптималлаштириш бўйича таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

26. Adam M., Schikowski T., Carsin A.E. et al. Adult lung function and longterm air pollution exposure. ESCAPE: a multicenter cohort study and metaanalysis // Eur. Respir. J. - 2015. - №45 (1). - P. 38-50.

27. Adams S.G., Melo J., Luther M., et al. Antibiotics are associated with lower relapse rates in outpatients with acute exacerbations of COPD // Chest. - 2000. №117. - P. 1345-1352.

28. CortezLugo M., RamírezAguilar M., PérezPadilla R. et al. Effect of personal exposure to PM_{2.5} on respiratory health in a Mexican panel of patients with COPD Int. // J. Environ. Res. Public Health. - 2015. - №12 (9). - P. 1063510647.

29. Harrod K.S., Jaramillo R., Berger J.A. et al. Inhaled diesel engine emissions reduce bacterial clearance and exacerbate lung disease to Pseudomonas aeruginosa infection in vivo // Toxicol. Sei. - 2005. - V.

30. McCormick MC. Issues in measuring child health // Ambul Pediatr. - 2008. №8 (2). - P. 77-84.

31. Simoni M., Baldacci S., Maio S. et al. Adverse effects of out door pollution in the elderly // J. Thorac. Dis. - 2015. - № 7 (1). - P. 34-45.

32. Wegesser T.C., Pinkerton K.E., Last J.A. California wildfires of 2008: coarse and fine particulate matter

toxicity // Environ. Hlth Perspect. - 2009. - №117 (6). - P. 89-897.

33. Xing Y.F., Xu Y.H., Shi M.H., Lian Y.X. The impact of PM_{2.5} on the

human respiratory system // J. Thorac. Dis. - 2016. - №8 (1). - P. 69-74.

UO'K: 911.5717

FACTORS AFFECTING THE TRANSFORMATION OF THE LANDSCAPES OF THE MIDDLE ZARAFSHAN BASIN

Xurramova Nazira Xurram qizi - "Samarqand Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'rta Zarafshon havzasi landshaftlari o'zgarishiga ta'sir qiluvchi ba'zi omillar berib o'tilgan. O'rta Zarafshon hududi o'lkamizdagi aholi eng zich yashaydigan, tabiiy sharoiti eng qulay joy hisoblanadi. Shuning uchun ham bu yerda insonning xo'jalik faoliyati ta'siri natijasida landshaftlar kuchli o'zgargan. Havza hududini har tomonlama kompleks o'rganib baholash juda muhim. Bu esa kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy hodisalarni oldini olish choralari ko'rishga yordam beradi.

Kalit so'zlar. O'rta Zarafshon, antropogen landshaftlar, qishloq xo'jalik landshaftlari, o'rmon antropogen landlandshaftlari, suv antropogen landlandshaftlari, rekreatsion landshaftlar, seliteb landshaftlar, sanoat landshaftlari, chiziqli yo'l landshaftlari, tarixiy rekonstruksiya.

Аннотация. В этой статье перечислены некоторые факторы, влияющие на изменение ландшафтов бассейна среднего Зарафшана. Средне Зарафшанский район – самое густонаселенное место нашей страны, с наиболее благоприятными природными условиями. Именно поэтому ландшафты здесь сильно изменились в результате хозяйственной деятельности

человека. Очень важно всесторонне изучить и оценить территорию бассейна. Это поможет принять меры по предотвращению природных явлений, которые могут произойти в будущем.

Ключевые слова. Средний Зарафшан, антропогенные ландшафты, сельскохозяйственные ландшафты, лесные антропогенные ландшафты, водные антропогенные ландшафты, рекреационные ландшафты, сельские ландшафты, промышленные ландшафты, линейные дорожные ландшафты, историческая реконструкция.

Abstract. This article gives some factors that influence the change in the landscapes of the Middle Zarafshan Basin. The Middle Zarafshan region is the most densely populated and has the most favorable natural conditions in our country. Therefore, the landscapes here have changed significantly as a result of human economic activity. It is very important to conduct a comprehensive study and assessment of the basin area. This will help to take measures to prevent possible natural disasters in the future.

Key words: Middle Zarafshan, anthropogenic landscapes, agricultural landscapes, forest anthropogenic landlandshafts, water anthropogenic

landlandshafts, recreational landscapes, seliteb landscapes, industrial landscapes, linear road landscapes, historical reconstruction.

Kirish. Bugungi kunda jahonda ro'y berayotgan global jarayonlar, aholi sonining ortib borishi, (demografik portlash) sanoatning rivojlanishi, inson faoliyatining atrof-muhitga kuchli ta'siri oqibatida turli ekologik va ijtimoiy muammolar vujudga kelmoqda. Shu boisdan, inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikning tarixiy ildizlarini tadqiq qilish, antropogen landshaftlarning rivojlanish omillarini hamda insoniyat tomonidan o'zlashtirilgan hudud geografiyasining o'ziga xos xususiyatlarini har tomonlama o'rganish dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

O'rganayotgan hududimiz O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi O'zbekistonning markaziy qismida Zarafshon vodiysining respublikamizga qaraydigan o'rta qismini o'z ichiga oladi. Okrug aniq tabiiy chegaraga ega bo'lib, uni shimol tamondan Nurota tog'lari, janubdan Chaqilikalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog'lari o'rab tursa, sharqdan Tojikiston bilan chegaradosh. G'arbda Quyi Zarafshon okrugidan Xazar yo'lagi bilan ajralib turadi. Havzaning umumiy maydoni taxminan 8725 km ni tashkil etadi. Okrug hududidagi Zarafshon havzasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u goh kengayadi, goh torayadi. Zarafshon vodiysining ana shunday kengaygan joyida Samarqand botig'i joylashgan. Uning yer usti tuzilishi yassi tekislikdan iborat bo'lib, g'arbda to Hazar yo'lagigacha 220 km.ga cho'zilgan. Uning kengligi 50-60 km bo'lib, shimol va janubdan past tog'lar bilan o'ralgan. Okrugning bu qismida Zarafshon daryosining uchta

ko'hna qayirlari bo'lib, ular lyossimon yumshoq jinslardan tuzilgan. Shu sababli soy va mavsumiy suvlar yuvib, juda ko'p jarlar hosil bo'lgan"¹. Ayniqsa, keyingi yillarda landshaftlarni insonlar tamonidan xo'jalik o'zlashtirilishi tufayli O'rta Zarafshon tabiiy geografik okrugida sezilarni o'zgarishlar ro'y berdi. Buning asosiy sababi yer resurslaridan yildan yilga ko'proq foydalanilayotganligi va aholi sonining oshib borayotganligidir.

O'rta Zarafshon havzasi landshaftlarining shakllanishida, uning paleoekologiyasida, antropogen landshaftning rivojlanishida, qadimgi aholining ming yillar mobaynidagi harakatlari natijasida o'zlashtirilib, obod etilishida va havza aholisining xo'jaligi va turmush tarzida Zarafshon daryosining o'rni doimo muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Daryodan boshlangan katta-kichik sug'orish kanallari faqat havzaning landshaftinigina o'zgartirib qolmay, balki daryo xarakteriga, shu jumladan, uning oqim yo'nalishiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Daryo oqimi asosiy qismining irrigatsiya sistemalariga taralib yuborilishi va uning vodiy bo'ylab qad ko'targan shahar va qishloqlarga sarflanib ketishi, shubhasiz, Zarafshon daryosini o'zboshimchalik bilan Amudaryo tomon intilgan jo'shqin oqimini susaytiribgina qolmay, balki bu ikki daryo o'rtasidagi o'zaro qadimgi aloqaning uzil-kesil uzilishiga ham sabab bo'lgan. Bundan tashqari havzada sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi natijasida, Zarafshonning oqimi Amudaryogacha yetib borishi u yoqda tursin, hatto uning suv balansi hududni suv bilan to'la ta'minlay olmadi. Hatto daryoning quyi qismiga joylashgan Buxoro vohasida vaqti-

vaqti bilan suv tanqisligi sodir bo'lib turardi. Shubhasiz, bu masala hududning o'zlashtirilish tarixiy dinamikasi bilan bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. “Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda O'zbekiston aholisi 2024-yil holatiga ko'ra, 37 million kishidan oshdi. aholi zichligi esa 1km² yer maydoniga o'rtacha 82 nafar doimiy aholi soni to'g'ri keladi. Qayd etilishicha aholi zichligi o'tgan yillarga nisbatan 1,9 kishiga ortgan. Bu ko'rsatgich esa yildan yilga o'saveradi. Aholi zichligining oshishi bilan, tabiiyki, insonlarning tabiatga ta'siri ham kuchayadi. O'rta Zarafshon havzasi hududida antropogen omillar ta'sirida landshaftlar kuchli o'zgartirilgan. Havzadagi antropogen omillar ta'sirida o'zgargan landshaftlarga quyidagi sabablarni ko'rsatishimiz mumkin;

- daryo yoqalaridagi to'qayzorlarning kesib va yoqib yuborilishi;
- daryo qayirlarida sholi maydonlarining kengayishi;
- sun'iy ko'llar tashkil etilib baliqchilik xo'jaliklarini tashkil etilishi;
- daryo yoqalarida chorva mollarining betartib boqilishi;
- maishiy chiqindilarning daryo o'zani va yoqalariga tashlanishi;
- rekreatsion dam olish maqsadida ko'plab sayohatchilar tamonidan turli xil chiqindilarning tashlab ketishi;
- o'simliklarning payhon qilinishi landshaftlarning o'zgarishiga sabab bo'lmoqda².

O'rta Zarafshon hududi rang-barang landshaft majmualaridan iborat. Ularning barqarorligi va ekologik muvozanatini saqlash kerak.

Buning uchun avvalambor, tabiatdan foydalanish texnologiyasiga, hududni kompleks o'rganishga, tarkibiy qismlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmini inobatga olib, tabiatdan aql bilan uning qonuniyatlariga bo'ysungan holda foydalanish zarur. Shundagina tabiat va inson orasidagi muvozanatni saqlashga erishgan bo'lamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Landshaftlarning rivojlanish qonuniyatlarini O'rta Zarafshon havzasi misolida o'rganganimizda havza landshaftlari quyidagi qonuniyatlar asosida rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Birinchi qonuniyat: O'rta Zarafshon havzasi landshaftlarining rivojlanish jarayoniga tashqi kuchlarning ta'siri. Har qanday muayyan bir landshaft ma'lum bir landshaftlar guruhida yoki bir kattaroq geotizim tarkibida mavjuddir va “yashaydi”. O'zi mavjud bo'lgan tabiiy muhitga moslashgan bo'ladi va shu muhitda barqaror hisoblanadi. Landshaftning rivojlanishidagi asosiy sabab va harakatlantiruvchi kuch ko'pincha tashqi kuchlarning ta'siri hisoblanadi. Tashqi muhitning o'zgarishi landshaftlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Havzada ham landshaftlarning ko'pchiligi tashqi omillar, masalan insonning xo'jalikdagi faoliyati ta'sirida o'zgarganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zgarishlarning qanchalik jadal yoki sust bo'lishi tashqi omillarning ta'sir kuchiga va landshaftlarning barqarorlik darajasiga bog'liqdir. Ikkinchi qonuniyati: O'rta Zarafshon havzasi landshaftlarining rivojlanish

jarayoniga ichki kuchlarning ta'siri. Havzada tarqalgan landshaftlarning ichidagi komponentlarning o'zaro ta'sir va qarama-qarshiliklari landshaftlarni sust, bir maromda va keskin o'zgarishlarsiz rivojlanishiga sabab bo'lsa, tashqaridan bo'ladigan ta'sir va aloqadorliklar bu jarayonni tezlashtirishi yoki keskin o'zgartirib yuborishi mumkin. Landshaftning rivojlanishi uning ichki tuzilishiga xos bo'lgan belgilarini yangi struktura belgilari tomonidan siqib chiqarishi demakdir. Bu jarayon landshaftda sifat o'zgarishlarini hosil qilib, yangi landshaftni barpo bo'lishiga olib keladi. Uchinchi qonuniyati: Havza landshaft komponentlarining bir butunlik qonuniyati. Havzadagi landshaftlarning har bir komponenti uzluksiz rivojlanishda va o'zgarishdadir. Agar shu komponentlardan birining xususiyati (masalan, iqlim) o'zgarib, yangi sifatga ega bo'lsa, qolgan komponentlar yoki ularning xususiyati (masalan, tuproq) unga moslashib olishga harakat qiladi. Bunday jarayon turli komponentlarda turlicha jadallik bilan va ba'zan ancha vaqtni o'z ichiga oladi. Ammo birinchi bo'lib o'zgargan komponent bu paytda esa yana rivojlanishda va o'zgarishda bo'ladi. Qolgan komponentlar yana unga moslashishga harakat qilaveradi. To'rtinchi qonuniyati: Havza landshaftlari rivojlanishida biotik va biotik bo'lmagan komponentlarning o'zaro ta'siri. Havza landshaft komponentlari ichida eng faol hisoblanadigan biota (o'simlik va hayvonotdir). Ular doimo biotik bo'lmagan komponentlar bilan qarama-qarshilikdagi va atrof-muhitga moslashishga harakat qiladi. Natijada havzada bir butun landshaftni qayta

tiklash jarayoniga olib keladi. Harakat bilan muvozanat uzluksiz o'zgaruvchan aloqadadir. Landshaftdagi muvozanat landshaftdagi harakat bilan harakatsizlik orasidagi muvozanat sharoitdagina saqlanishi mumkin. Lekin bundan muvozanat nisbiy va vaqtinchalikdir. Beshinchi qonuniyati: Hozirgi vaqtda havza landshaftlarida uchraydigan ayrim hodisa va jarayonlarni bilish uchun shu havzadagi landshaftlarning tarixini, yoshini bilish zarur bo'ladi³. Oltinchi qonuniyat. Havza landshaftlarning rivojlanish qonuniyatlarini bilish orqali havza landshaftlari kelajagini baholash. Havza landshaftlari rivojlanishining muayyan yo'nalishini (tendensiyasini) aniqlab olish havza landshaftlarining xalq xo'jaligini u yoki bu tarmog'ini rivojlantirish nuqtainazaridan baholash hamda istiqbolini belgilash uchun muhim shart-sharoitlardan biri hisoblanadi.

O'rta Zarafshon havzasi qadim tarixga ega. Qadim zamonlardan insonlar bu yerlarda yashab o'zlarining xo'jalik faoliyatlarini yuritib kelmoqda. Havza landshaftlari muvozanatdagi tizim emas ular to'xtovsiz o'zgarib turadi. Ba'zan bu o'zgarishlar qisqa muddatli bo'lib bir avlod hayoti davomida kuzatilishi mumkin (masalan, o'rmonning botqoqlanishi, ko'llarni o'simlik bosib ketishi, qum uyumlarining ko'chishi va h.k.), ba'zan esa uzoq muddatda ro'y berib, geologik davrlar miqyosida o'lchanishi mumkin⁴. Ammo bu o'zgarishlar doimo bo'lib turadi. Agar shunday bo'lsa landshaft haqidagi ta'limot landshaftdagi hozirgi vaqtda atrof-muhit bilan ozmi-ko'pmi muvozanatda bo'lib turgan elementlardan tashqari eski (oldingi davrlardan meros bo'lib

qolgan) hamda yangi (progressiv) unsurlarni ham farqlay bilishi va o'rganishi lozim (ichki va tashqi kuchlar ta'siriga bog'liq holda). (B.B.Polinov 1946 - yil).

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, Landshaftda bir komponentning o'zgarishi boshqa komponentning vujudga kelishiga olib keladi. Tabiatdan foydalanish va ishlab chiqarish jarayonida inson tamonidan yo'l qo'yilgan xato tabiiy va antropogen landshaftlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ekologik muvozanatni buzadi va geoekologik muvozanatni keskinlashtiradi. Shuning uchun ham landshaftlardan oqilona foydalanish, ularning ifloslanishi va buzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. Buning uchun buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish, ichki suvlarni turli xil kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishini oldini olish, tuproqning sho'rlanishi va erroziyasiga yo'l qo'ymaslik, atrof-muhitning geoekologik holatini yaxshilash, ekologiya buzilishiga qarshi kurashish ishlarini olib borish va landshaftlarni muhofaza qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение физико-географическое районирование. – М.: Высшая школа, 1991. –368 с.
2. Зокиров Ш.С., Боймирзаев К.М. Ландшафтшуносликасослари. – Наманган, 2009.–Б.62.
3. Orifjonova I. et al. O'rta Zarafshon havzasi relyefi. Havza landshaftlarini hosil qiluvchi tabiiy va antropogen omillar //Наука и инновация. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 102-104.
4. Рахматуллаев А., Зарафшон ҳавзаси тоғлари табиатига кишиларнинг таъсири. Самарқанд – 1990.

5. Xurramova N. et al. O'rta Zarafshon havzasidagi antropogen landshaftlarning turlari //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 150-155.

6. Xurramova N.X., Mirzaliyev S.R., Juraxujayev D.D. O'rta Zarafshon havzasi landshaftlariga antropogen ta'sir va havza landshaftlarining rivojlanish qonuniyatlari // Экономика и социум. 2023. №6-1 (109). URL:

<https://cyberleninka.ru/article/n/o-rta-zarafshon-havzasi-landshaftlariga-antropogen-ta-sir-va-havza-landshaftlarining-rivojlanish-qonuniyatlari> (дата обращения: 28.11.2024).

7.Алибеков Л.А., Самъяев А.К. Химизация орошаемых земель и процессы опустынивания (дегумизация почв) // Фарғона водийсида табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилишнинг долзарб муаммолари. Респ. илмий–амалий конф. материаллари. –Наманган. 2014 йил 6-7 июнь.

8.Назаров И.К. Абиогенные потоки в аридных геосистемах: оптимизация природопользования. –Т.: Фан, 1992. –99 с.

9.Одум Ю. Экология. В 2-х т. –М.: Мир. 1986. Т.1. –323 с.

5.Рахматуллаев А., Самъяев А., Равшанов А. Структурно-динамические особенности и оптимизация ландшафтов долины р. Зарафшан // Структурно - динамические особенности, современное состояние и проблемы оптимизации ландшафтов: Междунар. конф., посвященная 95-летию со дня рождения Ф.Н.Милькова. -Воронеж, 2013, - С.324-326.

10.Самъяев А.К. Некоторые проблемы использования водных ресурсов нижнего Зерафшана // Тоғ'

va tekislik landshaftlari barqaror rivojlanishining geografik asoslari. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari. -Samarqand. 2023. B. 112-114.

11. Abbasov S.B., Samyayev A.K. Modern Ecological Problems Of

Zarafshan River Delta// International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA issue 01, volume 81 published January 30, 2020. -P. 636-638

UO‘K: 338.246.025.88:332.3(575.146)

QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANMAGAN YER UCHASTKASINI XUSUSIYLASHTIRISHNING BIRLAMCHI MIQDORINI HISOBLASH

Egamova Dilchehra Adizovna – “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti tayanch doktoranti

Karomatov Valixon Shabobo o‘g‘li - “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti assistenti

Norimboyev Humoyun Risqitilla o‘g‘li - “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti assistenti

Annotatsiya. Yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi davlat siyosatining asosiy maqsadlaridan biri davlat yer resurslaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish va ta‘minlash bo‘lib, ushbu masala yerga xususiy mulkchilikni joriy etish va yer bozorini yaratish orqali amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan yer islohotining markaziy bo‘g‘ini hisoblangan yerga xususiy mulk huquqining vujudga kelishi, uni mustahkamlash va kafolatlash masalasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunga kelib huquqiy asosi yaratilgan, xususiylashtirish jarayoni respublikada boshlangan va u uzoq vaqt davom etadi. Ushbu maqolada fuqarolarga yer uchastkalarini xususiylashtirishi jarayonida birlamchi qiymatni hisoblash uchun yaratilgan “YER XUSUSIY” android dasturi to‘g‘risida fikrlar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Yer uchastkasi, yer islohoti, xususiy mulk, xususiylashtirish, noqishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar, mulk huquqi, ijara huquqi, order, jismoniy*

va yuridik shaxs, yer bozori, “Yer xususiy” android mobil ilova.

Аннотация. Одной из основных целей государственной политики в области регулирования земельных отношений является создание и обеспечение условий для эффективного использования государственных земельных ресурсов, и эта задача реализуется путем введения частной собственности на землю и создания земельного рынка. В связи с этим центральное звено земельной реформы связано с созданием права частной собственности на землю, его укреплением и гарантированием. На сегодняшний день создана правовая база, в республике начался процесс приватизации, который будет продолжаться еще долгое время. В данной статье рассматривается андроид программа “YER XUSUSIY”, которая создана для расчета первоначальной стоимости в процессе приватизации земельных участков для граждан.

Ключевые

слова:

Земельный участок, земельная реформа, частная собственность, приватизация, земля несельскохозяйственного назначения, право собственности, право аренды, доверенность, физическое и юридическое лицо, рынок земли, мобильное приложение android “YER XUSUSIY”

Abstract. One of the main goals of state policy in the field of land relations regulation is to create and ensure conditions for the effective use of state land resources, and this issue is implemented through the introduction of private ownership of land and the creation of a land market. In this regard, the issue of the emergence, strengthening and guaranteeing of private property rights to land, which is considered the central link of land reform, is relevant. To date, the legal basis has been created, the privatization process has begun in the republic and will continue for a long time. This article discusses the Android application “YER XUSUSIY”, created for citizens to calculate the primary value in the process of privatization of land plots.

Keywords: Land plot, land reform, private property, privatization, non-agricultural land, property rights, lease rights, warrant, individual and legal entity, land market, “YER XUSUSIY” Android mobile application.

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikada mavjud yer resurslaridan foydalanish samarasini talab darajasida oshirish ularni doimiy qayta taqsimlanish jarayonini talab qiladi. Bunday jarayon asosan yer uchastkalarini xarid qilish – sotish orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga

oshirilayotgan yer islohoti, natijasida yer bozori shakllanmoqda va yer uchastkasi oldi-sotdisi bilan bog‘liq bitimlar soni muttasil oshib bormoqda. Qonunchilik⁵da ko‘chmas mulk egalari huquqiy kafolatlarning yuzaga kelishi natijasida yer bozorining jadal rivojlanishi uchun yetarli sharoitlarni yaratmoqda.

Tadqiqot usuli. Yerning iqtisodiy qiymatini belgilash orqali uni fuqarolik huquqiy munosabatlar obyekti sifatida erkin muomalaga kiritish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar natijasida kerakli tavsiyalarni o‘z ichiga jamlagan xususiylashtirilayotgan yer uchastkasini sotib olish qiymatini hisoblashda xizmat qiladigan “Yer xususiy” android dasturiy ta‘minoti yaratildi.


Ushbu dasturiy ta‘minot mavjud qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish birlamchi miqdorini hisoblash usulini takomillashtirish maqsadida muallif tomonidan yaratilgan. Yaratilgan dastur ilovasini tashkil etuvchi bo‘limlar quyidagi 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm. “Yer xususiy” dasturi bo‘limlari

“Yer xususiy” android dasturiy ta‘minoti xususiylashtirilayotgan yer uchastkalarini qiymatini hisoblash va

amalga oshirish jarayoni uchun xizmat qiluvchi ilova hisoblanadi. Ilova faoliyati “Xususiylashtirish” bo’limini ishga tushirishdan boshlanadi. Ushbu bo’lim orqali yer uchastkasini xususiylashtirish qiymati aniqlash amalga oshiriladi. Buning uchun bo’limga kerakli ma’lumotlarni kiritish uchun dastlab subjekt tanlanadi (jismoniy va yuridik shaxs) va turar va noturar qismlariga ajralgan tugmalardan biri tanlanadi. Bu yerda faqat maydon ko’rsatkichi fuqaro tomonidan kiritiladi va hisoblash tugmasi orqali natijasi olinadi (2-rasm).



2-rasm. Yer uchastkasini xususiylashtirish qiymatini hisoblash.




3- rasm. Natijalar bo’limi

Natijalar bo’limi orqali hisoblangan xususiylashtiriy saqlanadi, shu yerda ulashish joyi ham mavjud bo’lib, boshqa fuqarolarga ham ulashish imkoniyati mavjud

Keyingi bo’lim ya’ni “Huquqiy me’yorlar” bo’limi orqali yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini joriy

etish, yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta’minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer egalariining mulkiy huquqlarini kafolatlash, shuningdek, yerning iqtisodiy qiymatini belgilash orqali uni fuqarolik huquqiy munosabatlar obyekti sifatida erkin muomalaga kiritishga oid barcha huquqiy me’yorlar mavjud hisoblanadi. Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish tartibi va uni amalga oshirish bo’yicha ketma-ketliklar aks ettirilgan.


Xususiylashtirilayotgan yer uchastkasini sotib olish qiymati natijasini olgan yuridik va jismoniy shaxslar to’g’ridan to’g’ri my.gov.uz ga integratsiya qilingan Ariza yuborish bo’limi orqali amalga oshirishi mumkin. Ariza yuborilgandan so’ng arizani ko’rib chiqish natijalari bo’yicha ariza kelishilganligi yoki rad etilganligi to’g’risidagi ma’lumotni o’z ichiga olgan xabarnomani shakllantiradi va uni YIDXP orqali ariza beruvchiga yuboradi. Ariza kelishilgan taqdirda, yer uchastkasini sotib olish uchun hisobvaraqlarni shakllantirilgan holda xabarnomaga ilova qilinadi (4-rasm).



4-rasm. Ariza yuborish bo’limi

Bundan tashqari dastur muhitida 3 ta til (O’zbek, rus va ingliz) da foydalanish, joylashgan hududni xaritadan ko’rish va boshqa imkoniyatlari mavjud. Dasturiy ta’minot yer uchastkalarini

xususiylashtirish, yerni bozor aktiviga aylantirish hamda yer bozori samaradorligini oshirish maqsadida asosiy parametrik omil bo'lib hisoblanadi (5-rasm).



5-rasm. Dasturning boshqa parametrlari

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki yer uchastkasini fuqarolik muomalasi obyektiga aylantirish va xalq qo'lidagi aktivlarning miqdorini oshirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda shuni xam ta'dlask kerakki, yer uchastkasini xususiylashtirishga mas'ul organlar tomonidan qonun normalarini noto'g'ri talqin qilish va hokazolar sabab bu jarayon sekin kechmoqda hamda yerni xususiylashtirish uchun berilgan arizalar turli sabablarga ko'ra rad etilgan. Agarda ma'muriy organlar faqat rad etish bilan shug'ullanmasdan rad etish sabablarini bartaraf etish yo'llarini o'rgatganda va yer egalariga ko'makchi bo'lganda yer bozori sezilarli darajada rivojlanadi. Ushbu dasturiy ilova yer uchastkalarini xususiylashtirishga oid ko'plab bo'g'nlarni to'ldiradi va o'z yecmini kutayotgan savollarga javob bo'lib xizmat qiladi va qolaversa yerni bozor aktiviga aylanishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, -T.: Adolat, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi, -T.: Adolat, 1998.

3. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni, 15.11.2021"

4. Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, PF-6243 8.06.2021

5. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori, 2022-yil 14-fevral № 71

6. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish va elektron onlayn-auksion orqali ijaraga berish tartib-taomillari soddalashtirilishi munosabati bilan Vazirlar Mahkamasining "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni PF-6061son 7-sentyabr 2020-yil

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik muhitini

yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida" gi farmoni PF – 101 son 8-aprel 2022-yil.

9. "Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, erga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 06.06.2022 yildagi O'RQ-775-son

10. Davlat mulkini xususiy lashtirish sohasi

takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.10.2024 yildagi PF-159-son

11. Altıyev A.S Yer resurslaridan foydalanish tizimini tartibga solish muammolari. Monografiya. T.: "Fan "2018-145b

12. B.Xodiyev. Z.Abdullayev. "Yer resurslarining qiymatini baholash". O'quv qo'llanma. Toshkent "Iqtisod moliya" nashriyoti 2010 yil.

13. www.lex.uz

14. www.ziyounet.uz

15. <http://smart-farmer.uz/>

UUK 528.443:349.4

IMPROVEMENT OF METHODS OF APPLICATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE INVENTORY OF IRRIGATED LAND AREAS

Kh.Zh.Khayitov – National Research University "Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers".

S.S.Ibrokhimov - State scientific and design institute of "UZDAVYERLOYIHA".

Annotatsiya. Maqolada qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yer maydonlarini o'tkazishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullarini takomillashtirish hamda agrar sektor barqarorligi va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ilmiy tadqiqot ob'ekti sifatida Andijon viloyati tumanlaridagi sug'oriladigan yerlar ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. yer fondi, yer axborot tizimi, sug'oriladigan yerlar, qishloq xo'jaligi erlari, yer o'lchash, navigatsiya, masofadan zondlash, raqamli er xaritasi, kosmik suratga olish, dronlar.

Аннотация. В статье проведены научные исследования по совершенствованию методов применения инновационных технологий при передаче сельскохозяйственных орошаемых земель и обеспечении стабильности аграрного сектора и продовольственной безопасности страны. Орошаемые земли в районах Андижанской области представлены как объект научного исследования.

Ключевые слова. Земельный фонд, Информационная система земли, орошаемые земли, сельскохозяйственные земли, межевание, Навигация, дистанционное зондирование,

Цифровая карта земель, Космическая фотография, Дроны.

Abstract. In the article, scientific research was carried out on the improvement of the methods of applying innovative technologies in the transfer of agricultural irrigated land areas and ensuring the stability of the agrarian sector and the food security of the country. The irrigated lands in the districts of Andijan region are presented as the object of scientific research.

Keywords. land fund, land information system, irrigated land, agricultural land, land surveying, navigation, remote sensing, digital land mapping, space photography, drones.

Introduction

Since the beginning of the 21st century, 1.5 billion hectares (approximately 10%) of the 13 billion hectares of land on Earth have been plowed and cultivated. In the history of human agriculture, approximately 2 billion ha of fertile land has been lost due to flooding, salinization, desertification, and construction. Currently, 6-7 million hectares of fertile land around the world is lost to agriculture every year [11]. In this regard, the effective use and protection of irrigated agricultural land, maintaining and increasing its current state, productivity, and prevention of negative processes in it is of great scientific and practical importance.

Special attention is being paid to researches aimed at developing different approaches and mechanisms for the transfer of agricultural irrigated land without loss. One of the important tasks is to improve the methods of applying innovative technologies, especially in the transfer of irrigated

land areas. In order to solve the problem that has arisen, a number of scientific and research works on effective use, protection and management of land resources in different regions of the world and in our country in the areas of land formation, land formation design, land transfer, land monitoring and geo-information systems were carried out by foreign and national scientists Yu.V. Gorbunova, A.Ya.Safonov, S.N.Volkov, V.V.Vershinin, E.L.Uvarova, M.Law, R.A.Turaev, A.R.Babajanov, Q.R.Rakhmonov, Sh.K.Narbaev, K.N.Khujakeldiev, A.N.Inamov, K.M.Khojiev, J.Z.Usmanov, R.N.Sharopov, B.Yu.Maksudov have a special place in their scientific work with certain positive results [2, 3, 4, 5, 6]. However, in the conditions of republic of Uzbekistan, there is no scientific basis for the implementation of sufficiently effective measures to improve the methods of applying innovative technologies in the transfer of irrigated land areas.

The current state of the problem under consideration. In our republic, one of the most urgent issues is the improvement of methods of irrigated land areas without loss through the use of geographic information technologies and drones.

Monitoring of agricultural land and crops, placement of agricultural crops, ensuring protection of agricultural land, including the work of clearing agricultural land, without destroying irrigated land areas are considered an important task [7, 8]. The analysis of researches shows that agriculture changes in the area of land used by enterprises, organizations and institutions, the transition of pasture

land to forest land in the territory of the republic, and other information on the increase in the land area in the categories is given.

Statement of issue. The main purpose of the research is to form a database of agricultural land users of Andijan region, to improve the mechanism of irrigated agricultural lands based on innovative technologies, and to determine the efficiency indicators of agricultural irrigated lands using unmanned aerial vehicles.

Solution method (methods). Remote sensing methods, methods of using geographical information technology software were used in the process of surveying irrigated agricultural land areas of Andijan region.

Analysis of results and examples. In the conditions of today's market economy, legal mechanisms for the transfer of agricultural land without loss have been developed in our country, and are being updated and improved by our respective government based on a number of laws and regulations. In this regard, it is appropriate to scientifically justify the transfer of irrigated agricultural lands based on the use of various innovative methods [1]. Analytical information on relations in the field of agricultural land use, regulation of irrigated land use and continuous control of agricultural land, including a number of works carried out on the transfer of agricultural land without loss is presented. The analysis of research shows that the land area used by agricultural enterprises, organizations, and institutions has decreased by 6019.3 thousand hectares by 2022 compared to 1990, and this change occurred due to the transition of

pasture lands to forest land categories in the territory of the republic, as well as an increase in the land area of other categories. In general, the reduction of the total area of the land fund by 692.6 thousand hectares is expressed only by the return of pasture lands that have been used for a long time to bordering countries (fig. 1).




Figure 1. Dynamics of changes in land categories of the Republic of Uzbekistan in 1990 and 2022

When analyzing the land fund of the Andijan region, the total area of agricultural lands is 360.9 (83.87%) thousand hectares, of which 232.9 thousand hectares are irrigated lands. In addition, according to the survey conducted in the region in 2022, it was determined that the total area of irrigated agricultural land is 200.4 thousand hectares, which is 46.56% of the total land area of the region.

As a result of the conducted research, the dynamics of changes in the total irrigated land of the region's agricultural land over the last 10 years was compiled (fig. 2).

During the analysis of the data obtained during the research period, the following was determined. In 2012-2022, the total irrigated arable land area in the region decreased from 203.8 thousand hectares to 200.4 thousand hectares.




Figure 2. The last 10-year information on the state of total irrigated lands of Andijan region

Also, the distribution of irrigated arable land in 16 districts and cities of the region is given as a percentage, among which the total agricultural irrigated arable land area is Oltinkul 5.6 percent, Andijan 6.3 percent, and Asaka 4.8 percent. Baliqchi 9.69 percent, Boston 6.16 percent, Bulokboshi 3.5 percent, Jalakuduk 8.92 percent, Izboskan 8.4 percent, Kurgantepa 10.56 percent, Markhamat 6.6 percent, Pakhtabad 8.8 percent, Ulug'nor 10.36 percent, Khojaabad 2.7 percent, Shahri Khan 8.1 percent, Khanoabad 0.7 percent (fig. 3).




Figure 3. Irrigated lands in Andijan region and their distribution by districts

If we look at the data determined on the basis of the survey carried out in the Andijan region, the total area of agricultural irrigated land is 200.4 thousand hectares, that is, 46.56% of the total land area of this region.

An important issue of the land information system is the operation of its sub-systems: information formation, transmission and processing. The most complex process is the formation of information. The task of the communication system is to receive messages and transmit them in a user-friendly form. In general, the communication system is a component of the information system, as well as the land information system [1].

Today, in the production process, modern technologies, including high-resolution space photographs, creation of electronic digital maps based on GIS software are widely carried out. On the basis of GIS technologies, transfer of irrigated arable land areas of the facility will increase the possibility of regulating the efficient use of agricultural land.

As a result of the transfer of irrigated agricultural land areas based on innovative technologies, the transfer of irrigated land areas in agriculture through the use of geographic information systems was analyzed on the basis of the “Land Information System” portal, users, contours, types of agricultural land and types of agricultural crops were created in sequence and the database of Andijan region was formed [9, 10] (fig. 4).

As shown in Figure 4, the database was formed in a sequence of layers. The attributive information on the administrative-territorial structure of the province was completed. In addition, ID numbers were assigned to each layer in order to connect it to each other. The main purpose of this is to connect one layer to another and gather information on the region. This allows

you to get the data in the form of a table.

During the conducted research, a digital classifier was developed for the types of enterprises and organizations using agricultural land. Each land user organization was divided into 20 types and given a numerical code.

The creation of the classification of the types of land users serves as the basis for the creation of a digital map of agricultural land in our country. This digital classifier will increase the readability of the “Irrigation Transfer of Agricultural Lands” maps created by us, will help in the future use of these maps and the rational and efficient use of existing agricultural irrigated lands, as well as the regulation of agricultural producers.




Figure 4. The sequence of layers in the database of Andijan region

According to the analysis of the results of surveying irrigated agricultural land using drones, when surveying 1000 hectares of agricultural land using various methods, the Cartographic drone (Foxtech AYK-250 VTOL Inspection Combo) drone was considered promising compared to the traditional method. 2 hours of field work and 4 hours of data processing are spent by one land surveying operator, and it was determined that the cost required for these two specialists is 120,000 soums.

In the course of the researches, unmanned aerial vehicles were used to survey irrigated agricultural land in the

Mashal massif of the Markhamat district of the region. In this case, we can say that the total area of 901 land plots of the agricultural map is 11.9 hectares, of which the irrigated land area is 11.6 hectares, and it was 11.45 hectares, compared to the report, and the main reason for this is the irrigated land area. The modified greenhouse can be clearly seen in the drone photo (fig. 5).



Figure 5. The difference between the drone photo and the report

In order to regulate the transfer of irrigated land areas, using "Yat Portal" information, to clarify the quantity and quality data on land transfer and land plots, to determine the location of management objects in land transfer, their boundaries, analyzes of whether they are used or not, for effective use or other purposes. A mechanism was developed to identify cases of land use and misuse of land plots, to determine other features related to land resources, and to transfer the sequence of disposal (fig. 6).




Figure 6. The mechanism of transfer of irrigated land areas without loss

In this process, it is recommended to work on the basis of the mechanism of the sequence of agricultural land survey plan > drone data > ArcGIS software > R-GIS portal in improving the methods of using innovative technologies for the transfer of agricultural irrigated land areas.

Conclusion

In the results of field research conducted in Jalakuduq, Bo'ston, Marhamat and Shahrikhan districts of Andijan region, the following was determined:

1. In the conditions of the Republic of Uzbekistan, it is necessary to further expand the scale of the practice of using innovative technologies in the process of transfer of irrigated agricultural lands, protection of arable lands, and land preparation works.

2. The total land area of agricultural lands in the land fund of Andijan region is 360.9 (83.87%) thousand hectares, of which 232.9 thousand hectares are irrigated lands. According to the survey conducted in the region in 2022, it was determined that the total area of agricultural irrigated land is 200.4 thousand hectares, that is, 46.56% of the total land area of the region.

3. During the survey conducted in Jalakuduq district of Andijan region, it was found that 268.9 hectares of irrigated land are scarce, these circumstances are due to illegal constructions (houses, buildings, etc.) in this district. This requires the regular organization of inventory work, i.e. not every 5 years but every 1 pilot plot (mainly in densely populated areas) and its monitoring. Such practical work prevents the reduction of valuable land area.

4. In 2020, 127.16 hectares of excess irrigated land identified during

the inspection process in the Boston district of the region were reduced in additional land tax revenues in the amount of 34 million 882 thousand 121 soums, 10 land development projects were developed, 47 additional jobs were created, in the end, these conditions allow the placement of various agricultural crops (cotton, grain, potatoes, oilseeds, sugarcane and vegetable crops).

5. It is possible to place agricultural crops on a total of 4775.45 hectares of agricultural land in the territory of "Marhamat tekstil agro" LLC in Marhamat district and "Sakhovat tex ziroat" LLC in Shahrikhan district.

6. Using innovative technologies, it is recommended to work on the basis of the sequence mechanism of agricultural land survey plan > drone data > ArcGIS program > R-GIS portal.

References

1. Avezboev S.A. Automated systems for the design of land formation. - T.: "TIMI", 2008. - 136 p.
2. Matsudov B.Yu., Turaev R.A. and Dr.T., Toshpulatov S.A. Assistance in software development (Korean curriculum) / nauka-publika. - Tashkent, "Fan Ziyoshi", 2021. - 27 p.
3. Maksudov B.Yu., Turaev R.A., Parpiev G.T., Toshpulatov S.A. Creation of land information systems (experience of the Republic of Korea) / Scientific and popular publication. - Tashkent, "Fan Ziyosi", 2021. - 27 p.
4. Abdurakhmanov S.N., Inamov A.N. Improving the methods of creating objects in the geodatabase // "Agroilm" application of

- "Uzbekistan agriculture" magazine. - Tashkent. 2017. - No. 5 (49) - no. - pp. 76-77.
5. Babajanov A.R., Sultanov N.A., Khojiev Q.M., Sharopov R.N. The advantages of land surveying in quantitative accounting // "Economics and innovative technologies" scientific electronic journal. #6, November-December, 2021. -pp. 55-62.
 6. Gorbunova Yu.V., Safonov A.Ya. Inventory and monitoring lands of settlements. FGBOU VO "Krasnoyarsk State Agrarian University". 2018. - 209 p.
 7. Inamov A.N. Automation of the land accounting system in the ArcGIS software belonging to the GIS family // Rural Uzbekistan farm" magazine "Agroilm" application. - Tashkent, 2020. - Issue No. 6 (69). - pp. 81-83.
 8. Ibroximov S.S. Improving the use of "Land information system" portal information in the transfer of irrigated lands // American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations. Volume 02 Issue 08 August 2022, ISSN 2771-2559. SJIF Impact Factor (2021:5.705) (2022:5.705). Crossref DOI: <https://doi.org/10.37547/ajahi/Volume02Issue08-01>.
 9. Ibrokhimov S.S. Use of information from the "Land Information System" portal in the transfer of irrigated land without contamination // Journal of Agro-chemical protection and plant quarantine. - Tashkent, 2022. - No. 3, - pp. 80-83. (06.00.00, № 11).
 10. <https://www.fao.org/land-water/solaw2021/ru/>

UUK: 551.444(575.142)

AMUDARYONING QADIMIY DELTA TEKISLIGINING VOHA LANDSHAFTLARI

Karimbayev Qoylibay Konisbayevich - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Amudaryoning qadimiy delta tekisligining landshaftlari, hususan voha landhsaftlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot hududning hozirgi landshaftlari kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishiga ko'ra tabiiy landshaftlar sistemasi va antropogen landshaftlar sistemasidan tashkil topganligi aytib o'tilgan. Qadimiy davom etib kelayotgan gidromeliorativ jarayoni voha landshaftlarida 2-3 m qalinlikdagi

agroirrigatsion yotqiziqlarni shakllanishiga va dastlabki tuproq qoplamining tabiiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yuborishga sabab bo'lganligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: qadimiy delta, landshaft, allyuvial tuproq, tuproq sho'rlanishi, tabiiy sharoit.

Аннотация. В статье представлена информация о ландшафтах древней дельты Амударьи, в частности оазисных ландшафтах. Отмечено, что

современные ландшафты региона состоят из систем природных и антропогенных ландшафтов, которые сформировались в результате их происхождения, формирования и развития. Подчеркивается, что длительные гидромелиоративные процессы в оазисных ландшафтах привели к формированию агроирригационных отложений толщиной 2-3 метра и к коренному изменению природных свойств первоначального почвенного покрова.

Ключевые слова: древняя дельта, ландшафт, аллювиальные почвы, засоление почв, природные условия.

Abstract. The article provides information about the landscapes of the ancient delta plain of the Amu Darya, particularly the oasis landscapes. The research highlights that the current landscapes of the region are composed of natural and anthropogenic landscape systems based on their origin, formation, and development. It is emphasized that the long-standing hydromeliorative processes in the oasis landscapes have led to the formation of 2-3 meters thick agro-irrigational deposits and have fundamentally altered the natural characteristics of the initial soil cover.

Key words: ancient delta, landscape, alluvial soil, soil salinization, natural conditions.

Kirish. Amudaryoning qadimiy deltasi hududida o'zining geografik o'rnini tez-tez o'zgartirib turadigan landshaft komplekslardan biri daryo o'zanidir. Amudaryo allyuvial yotqiziqlardan tarkib topgan qadimiy delta tekisligidan oqib o'tishda dengiz jarayoni tufayli goh o'ng qirg'oqni, goh chap qirg'oqni yuvib turadi. Natijada daryo o'zani har yili o'rta hisobda 100 m gacha, ayrim yillarda esa 200-400 m gacha o'ng yoki chap qirg'oq tomon

siljishi mumkin (Shuls, Mashrapov, 1969). Deygish jarayoni tufayli yiliga o'rtacha 2000 ga dan ko'proq allyuvial tuproqli unumdor yerlar yuvilib ketadi, to'qayzorlar, mevali bog'lar va ekin maydonlari talofat ko'radi.

Bu regionda sodir bo'lib turadigan deygish jarayoni faqat qayir landshaft komplekslari dinamikasiga ta'sir etib qolmasdan balki ahyon-ahyonda shahar va qishloq seliteb landshaftlar dinamikasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularga ham katta zarar keltiradi. Masalan, 1944-yilda yozgi to'lin suv davrida Amudaryoning o'ng qirg'og'i kuchli yemirilish oqibatida daryo o'zani 3-4 km shimol tomonga siljib, To'rtko'l shaharining janubiy qismini suv butunlay olib ketgan.

Tuyamo'yin tangligidan g'arb tomonda, qadimgi va hozirgi deltalar hududida Amudaryoning har ikkala qirg'og'i juda past joylashganligi sababli to'lin suv davrida ularni suv bosib o'tloqzorlarga, agrolandschaftlarga ko'plab zarar keltiradi. Shu boisdan ekin maydonlarini, qishloqlarni suv bosishdan himoya qilish maqsadida daryoning o'ng va chap qirg'oqlari bo'ylab kengligi 8-10 m va balandligi 4-6 m keladigan sun'iy dambalar barpo etilgan. Dambalar sharqda "Tuyamo'yin tangligidan boshlanib, g'arbda Orol sohillarigacha davom etadi. Sun'iy dambalar ham kelib chiqishiga ko'ra antropogon geosistemalar doirasidagi o'ziga xos texnogon landshaftlar hisoblanadi.

Eol qumli cho'l landshaftlarning asosini tashkil etuvchi qum tepaliklari, do'ng qumlar, gryadali qumlar, barxanlar va barxan zanjirlari kabi relyef shakllarini vujudga kelishida va shakllanishida shamolning yetakchilik roli nihoyatda katta. Bular orasida barxan qumli landshaftlar o'zining harakatchanligi bilan ajralib turadi. Barxanlar ko'chib yuradigan qumlar

toifasidan bo'lganligi uchun ham shamolning kuchi va yo'nalishiga qarab o'zining tashqi qiyofasini va joyini tez-tez o'zgartirib turadi. Amudaryo sohili va Unguzorti Qoraqumidagi eol qumli cho'l landshaftlariga taalluqli bo'lgan barxan zanjirlari, vohalar oraligida mavjud bo'lgan barxanlar shamolning kuchi va yo'nalishiga qarab bir yilda u yoki bu tomonga 5-8 m dan 12-15 m gacha siljishi mumkin.

Material va metod. Amudaryo deltasida tabiiy sharoit dinamikasi bilan bog'liq bo'lgan landshaftlarning rivojlanishi N.A.Kogay va Sh.S.Zokirov (1983) ishida yoritilgan. Amudaryo deltasi landshaftlarining morfologik strukturasini, ularning dinamikasi va kartalashtirish muammolari V.A.Popov (1990), L.Fabian va boshqalar (2016), E.A.Fayziyev (2024), K.Navneet va boshqalar (2019), I.Aimbetov (2009), D.Ro'zmetov va boshqalar (2015), Sh.Dusanova (2020), A.Nigmatov, O.Matchanov (2022), tomonidan batafsil o'rganilgan. U delta sharoitida yuz berayotgan landshaftlar dinamikasi va geosistemalarning cho'llanish jarayonlariga tavsif berishda dinamik indikatorlar uslubidan foydalangan.

V.A.Popovning (1990) fikricha Quyi Amudaryoning hozirgi deltasida gidrologik rejimning o'zgarishi natijasida muayyan hududlarda o'simliklarning tur tarkibini to'liq almashinishi o'rta hisobda 3-5 yil davomida amalga oshirish mumkin. Bu jarayon tuproqlarda bir muncha sekinroq sodir bo'lib, bir turdagi tuproqning ikkinchi tur tuproq bilan almashinishiga o'rta 4-8 yil talab qilinarkan.

Amudaryoning qadimiy delta tekisligida vujudga kelgan voha landshaftlari to'qay voha joy tipiga nisbatan keng tarqalgan bo'lib, ular maydonining kattaligi jihatidan Xorazm vohasining morfologik

strukturasida yetakchi rol o'ynaydi. Qadimiy deltaning yer usti tuzilishi keng to'lqinsimon allyuvial tekislikdan iborat.

Qadimiy delta voha joy tipining asosiy qismini sug'oriladigan agrolandschaftlar va irrigatsion landshaftlar tashkil etadi. Shuning uchun bu hududdagi grunt suvlarning rejimi irrigatsion xarakterga ega. Qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish davrida suvning yerga singishi oqibatida grunt suvining sathi keskin ko'tariladi. Sug'orish oralig'idagi paytlarda esa aksincha, grunt suvining sathi pasayadi. Shuningdek kuchli sho'rlangan yerlarda ham tuproqning sho'rini yuvish paytida grunt suvining sathi keskin ko'tarilib madaniy tuproqlarning suv-tuz balansiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Qadimiy delta tekisligi vohalari hududida grunt suvlarining sathi yilning aksariyat oylarida 1-1,5 m chuqurlik atrofida bo'ladi. Ularning fasliy o'zgarish amplitudasi o'rta 2 m gacha boradi. Bu ko'rsatkich ishlab turgan kanallar va ariqlar bilan tutash bo'lgan maydonlarda ancha kamayadi va ulardan uzoqlashgan sari ortib boradi.

Natija. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya boshqarmasining bergan ma'lumotlarga tayangan holda 2000-2023 yillar oraligini tahlil qilib kuzatganimizda, Xorazm viloyati bo'yicha kuchli sho'rlangan yerlar ulushi 12% dan yuqari bo'lganlar Gulistan va Qo'shko'pir tumanlariga to'g'ri keladi. 9-12% oralig'ida bo'lgan Shovot, Hazorasp va Tuproqqal'a tumanlari, 6-9% bo'lganlar Yangiariq, Yangibozor tumanlari va Urganch shahri egallasa, 3-6% kuchli sho'rlangan yerlarga Xiva va Xonqa,


Bog'ot tumani 3% dan kam yerni egallaydi (1-rasm).

Qadimiy delta tekisligining voha landshaftlarida azaldan rivojlanib kelgan sug'orma dehqonchilik ta'sirida keng tarqalgan o'tloq va botqoq-o'tloq tuproqlarning strukturasi, mexanik tarkibi, suv-tuz balansi, kimyoviy xususiyatlari keskin o'zgarib, ular antropogen evolyusiya natijasida madaniylashtirilgan agrotuproqlarga aylandi. Oqibatda qadimiy davom etib kelayotgan gidromeliorativ jarayon, ya'ni qishloq xo'jalik ekinlarini loyqa suv bilan sug'orish jarayoni voha landshaftlarida 2-3 m qalinlikdagi agroirrigatsion yotqiziqlarni shakllanishiga va dastlabki tuproq qoplamining tabiiy xususiyatlarini tubdan o'zgartirib yuborishga sabab bo'ldi.

Qadimiy delta voha landshaftlari doirasida agroirrigatsion yotqiziqlarning qalinligi bir xil taqsimlanmagan. Uning qalinligi janubi-g'arbdan shimoli-sharq tomon o'zgarib boradi. Eng qalin irrigatsion yotqiziqalar vohaning janubi-g'arbiy qismidagi Dovdan delta tekisligida, o'rtacha qalinlikdagi irrigatsion yotqiziqalar Dovdan o'zani bilan Amudaryo oralig'ida joylashgan Daryolik delta tekisligida va eng kam qalinlikdagi irrigatsion yotqiziqalar vohaning shimoli-sharqiy qismidagi allyuvial tekisliklarda yaqqol kuzatiladi. Bunday manbalar Amudaryoning qadimiy deltasida sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida boshlangan o'zlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich davom etganligidan va voha landshaftlarining yoshi shakllanish tarixiga ko'ra arxeologik davrlar bilan bevosita bog'likligidan dalolat beradi.

Xorazm vohasida madaniylashtirilgan o'rtapishar paxta navini to'liq pishib yetilishi uchun termik resurslar mavjud. Don

ekinlaridan sholi, bug'doy, makkajo'xori va oq jo'xori ko'pchilikni tashkil etadi. Vohaning boshqa tumanlariga nisbatan Gurlan (5008 ga), Bog'ot (1808 ga), Xonqa (1419 ga), Shovot (999 ga) tumanlarida sholi ko'p ekiladi. Birgina Xiva vohasida sholining 7 turi yetishtiriladi. Bulardan tashqari turli xil navli qovun, torvuz, qand lablagi va boshqa sabzavotlar ham ekiladi (<https://www.xorazmstat.uz/uz/>)



1-rasm. Xorazm viloyati tuproq sho'rlanishi karta sxemasi

Qadimiy delta voha joy tipi doirasida hozirgacha o'zlashtirilmay qolgan tabiiy landshaft komplekslari ham ba'zan uchrab turadi. Ular Dovdan va Daryolikning quruq o'zanlarida saqlanib qolgan sho'rxoq yerlar, delta tekisligining pastqam joylaridagi qurib qolgan ko'l botiqlari va gil yotqiziqali sho'rxoq o'tloq-taqirlardan iborat. Bu xildagi landshaft komplekslarining maydoni unchalik katta emas. Mahalliy aholi ulardan chorva mollarini boqishda yaylov sifatida foydalanadi.

Xulosa. Landshaftlarini kompleks tadqiq etish, morfologik birliklarini ajratish, tavsiflash, kartalashtirish va dinamikasini tahliliga asoslanib quyidagicha xulosa qilish mumkin.

Hududning hozirgi landshaftlari kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishiga ko'ra ikki xil toifadagi landshaftlar sistemasidan tarkib

topgan: tabiiy landshaftlar sistemasi va antropogen landshaftlar sistemasi.

Tabiiy landshaftlar o'z-o'zini boshqaradigan va tashkil etadigan geosistema bo'lib, ular tabiiy omillarga bevosita bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Antropogen landshaftlar, xususan vohalar inson tomonidan boshqariladigan va tashkil etiladigan geosistema bo'lib, ular antropogen omillar ta'sirida vujudga keladi va rivojlanadi.

Tabiiy landshaftlarning morfologik strukturasini eol qumli cho'l, qadimiy plato cho'l, to'qay va ko'l-botqoq joy tipilaridan hamda ularda qonuniy ravishda takrorlanadigan xilma-xil urochishalardan tashkil topgan. Antropogen landshaftlarning morfologik strukturasini to'qay voha, qadimiy delta voha joy tiplaridan va antropogen urochishalardan iborat.

Foydalanilgan Adabiyotlar ro'yxati:

1. Fabian Löw, François Waldner, Alexandre Latchinsky, Chandrashekhar Biradar, Maximilian Bolkart, René R. Colditz. Timely monitoring of Asian Migratory locust habitats in the Amudarya delta, Uzbekistan using time series of satellite remote sensing vegetation index. *Journal of Environmental Management*. Vol. 183, Part 3, 2016, P. 562-575, ISSN 0301-4797, <https://doi.org/10.1016/j.jenvman.2016.09.001>

2. Fayziyev E.A. Amudaryo deltasi landshaftlarining melioratsiya ta'sirida o'zgarishi. // *Geog. fan. bo'y. fal. dokt. diss. avtoref.* – Samarqand, 2024.

3. <https://www.xorazmstat.uz/uz/>

4. Navneet Kumar, Asia Khamzina, Bernhard Tischbein, Patrick Knöfel, Christopher Conrad,

John P.A. Lamers. Spatio-temporal supply–demand of surface water for agroforestry planning in saline landscape of the lower Amudarya Basin. *Journal of Arid Environments*. Vol. 162, 2019, P. 53-61, ISSN 0140-1963,

<https://doi.org/10.1016/j.jaridenv.2018.11.007>

5. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi Chapqirg'oq Amudaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Meliorativ ekspeditsiya boshqarmasi ma'lumoti

6. Olov Johansson, Izzet Aimbetov, Jerker Jarsjö. Variation of groundwater salinity in the partially irrigated Amudarya River delta, Uzbekistan. *Journal of Marine Systems*. Vol. 76, Iss. 3, 2009, P. 287-295, ISSN 0924-7963, <https://doi.org/10.1016/j.jmarsys.2008.03.017>

7. Ro'zmetov D., Matchanov M., Qalandarov U., Masharipov A. "Quyil Amudaryo mintaqasida qishloq xo'jalik aylanmasidan chiqqan hududlar meliorativ-ekologik sharoitini yaxshilash masalalari". –U, 2015. – 128-bet

8. Дусанова Ш., Атаева Н., Отабоева М. Хоразм воҳаси агроландшафтларига гидрографик шароитнинг таъсири. Хива-2020. 128 б.

9. Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Развитие ландшафтов дельты Амударьи. // *Современная дельта Амударьи.* – Ташкент: Изд-во Фан, 1983

10. Нигматов А., Матчанов О. Географик ахборотлар тизими асосида балиқчилик хўжалигини юритишнинг географик жиҳатлари (Хоразм вилояти мисолида). Монография. ISBN: ISBN 978-9943-7324-9-0. Тошкент. "Innovatsiya-Ziyo". -2022. 148 б.

11. Попов В.А. Проблема Арала и ландшафты дельты Амударьи. – Ташкент: Фан, 1990. - 112с

Шульц В.Л., Машрапов Р. Ўрта Осиё гидрографияси. Ўқув қўлланма. - Т. Ўқитувчи. 1969. - 327 б.

UUK 551.444(575.143)

KATTAQO‘RG‘ON SUV OMBORI TA‘SIRIDA YER OSTI SIZOT SUVLARINING O‘ZGARISHI

Fayzullayev Jaloliddin Karimovich – Samarqand davlat universiteti tayanch-doktoranti

Xursanov Dunyobek Baxtiyorovich – Samarqand davlat universiteti dotsenti, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Maqolada Kattaqo‘rg‘on suv ombori ta‘sirida suv ombor atrofidagi hududlarda yer osti sizot suvlarining o‘zgarishi, suv omborning yer osti suvlariga ta‘siri yer usti relefiga bog‘liq ravishda hududlarda turlicha ekanligi, ushbu hududdagi yer usti va yer osti suvlarining mineralizatsiya darajasi, yer osti suvlarining tuproq qoplamiga ta‘siri tadqiq etilgan. Shuningdek, suv ombor atrofidagi hududlardan olingan suv namunalari tahlil qilinib, sizot suvlar sifatiga suv ombordan bo‘ladigan filtratsiyaning ta‘siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. suv ombor, atrof-muhit, sizot suvlar, tuproq, mineralizatsiya, filtratsiya, relef, sho‘rlanish, melioratsiya, kanal, havza, arid mintaq, Piper diagrammasi, Schoeller diagrammasi.

Аннотация. В статье рассмотрено изменение подземных фильтрационных вод на территориях вокруг водохранилища под влиянием Каттакорганского водохранилища, отмечено, что воздействие водохранилища на подземные воды различно в регионах в зависимости от рельефа поверхности, поверхности

и подземные воды на этом участке изучены степень минерализации, влияние грунтовых вод на почвенный покров. Также были проанализированы пробы воды, взятые с территорий вокруг водоема, и изучено влияние фильтрации из водоема на качество пресной воды.

Ключевые слова. водоем, окружающая среда, подземные воды, почва, минерализация, фильтрация, рельеф, засоление, мелиорация, русло, бассейн, засушливый регион, диаграмма Пайнера, диаграмма Шёллера.

Abstract. The article studies the changes in groundwater levels in the areas surrounding the reservoir under the influence of the Kattakurgan reservoir, the fact that the impact of the reservoir on groundwater varies depending on the relief of the land, the degree of mineralization of surface and groundwater in this area, and the impact of groundwater on soil cover. Also, water samples taken from the areas surrounding the reservoir were analyzed, and the impact of filtration from the reservoir on the quality of groundwater was studied.

Key words. reservoir, environment, groundwater, soil, mineralization, filtration, relief,

salinization, land reclamation, canal, basin, arid region, Piper diagram, Schoeller diagram.


Kirish. Inson xo'jalik faoliyatining tabiatga ta'siri kuchayib borishi birinchi navbatda yer usti suvlari va tuproq qoplamiga ta'sir ko'rsatdi. Keyin esa yer usti orqali sizot suvlarida ta'sir seziladi. Kattaqo'rg'on suv ombori atrofida hududlarda XX asrning 60-yillariga qadar qishloq aholisi asosan ichimlik suvi sifatida sizot suvlaridan foydalanishgan. Bu hududlarda quduqlarning chuqurligi joy sharoitiga bog'liq holda 15-20 metr atrofida bo'lgan. Kattaqo'rg'on suv omborining qurilishi ushbu hududdagi yer osti suvlarining sathi va sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Suv ombor tabiiy tektonik botiqda joylashgan bo'lib, janub va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g'arbga qarab nishabligi pasayib boradi. Suv omborning eng chuqur joyi ham shimoliy qismiga to'g'ri keladi.

Olingan natijalar muhokamasi. Kattaqo'rg'on suv omborining atrofida sizot suvlar sifatiga ta'sirini aniqlash maqsadida suv ombor havzasidan hamda atrofda hududlardan suv namunalari olindi. Jami 23 ta nuqtadan olingan suv namunalari tahlil qilindi. Ulardan 8 tasi alohida tanlab olinib o'rganildi (1-rasm). Bu namunalar suv ombor havzasining shimoliy va janubiy qismidan, shuningdek suv omborning shimoliy, shimoli-g'arbiy, janubiy, janubi-sharqiy va sharqiy hududlaridagi sizot suvlaridan olingan. Yer osti suvlaridan namunalar asosan 30-35 metr chuqurlikdagi quduqlardan olindi. Ushbu namunalar Darmshtadt texnika universiteti (Germaniya)ning Organik va noorganik kimyo laboratoriyasida tahlil qilindi. Suv ombor hamda atrofda sizot suvlar orasidagi bog'liqlikni aniqlash maqsadida olingan natijalar bir necha

tahlil usullaridan foydalanildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, suv omborning atrofda yer osti suvlariga ta'siri darajasi hududlarda farq qiladi. Jumladan, suv ombordan janubiy, g'arbiy va sharqiy hududlarda yer osti suvlari mineral tarkibi suv ombor havzasidagi suvdan bir muncha farq qiladi. Suv ombordan shimoliy, shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy hududlardagi sizot suvlar esa mineral tarkibi jihatdan suv ombor havzasidagi suv bilan deyarli bir xil ekanligini ko'rsatdi. [1]

1-rasm

Suv ombor havzasidan va atrofda yer osti suvlaridan namuna olingan nuqtalar. (2023-yil, Suv namunalari Darmshtadt texnika universitetining Organik va noorganik kimyo laboratoriyasida tahlil qilingan)



Suv havzasining sizot suvlarga ta'siri filtratsiya jarayoni bilan bog'liq. Suv ombordan bo'ladigan filtratsiya miqdori esa hududning geologik tuzilishi hamda relefning nishabligiga bog'liq. Suv ombor dengiz sathidan o'rtacha 509 metr balandda joylashgan bo'lib, janubdan shimolga tomon nishabligi pasayib boradi. Janubiy va janubi-g'arbiy qismi Ziyovuddin-Zirabuloq tog'larining shimoliy etaklariga to'g'ri keladi va bu yerda dengiz sathidan balandlik 530-540 metrga yetadi. Shimoliy qismi Kattaqo'rg'on shahrigacha boradi va shimoliy qismining dengiz sathidan

mutlaq balandligi 490-500 metrda

Ingredientlar	Suv namunalari olingan nuqtalar							
	№ 3	№ 4	№ 5	№ 10	№ 11	№ 12	№ 13	№ 14
Cl (mg/l)	16	24	16	17	587	18	152	103
NO ₃ (mg/l)	7	22	7	6	63	4	29	9
SO ₄ (mg/l)	177	311	184	176	2870	186	1073	959
Na (mg/l)	36	64	37	36	797	40	394	246
K (mg/l)	2	3	11	3	20	1	7	8
Mg (mg/l)	37	69	36	35	263	36	93	116
Ca (mg/l)	58	88	62	56	441	52	95	128

yetadi. [3]

1-jadval


Kattaqo'rg'on suv omborining atrofdagi sizot suvlarga ta'sirini aniqlash uchun olingan suv namunalari laboratoriya tahlidan o'tkazildi. Olingan natijalar esa Piper diagrammasi (1-grafik) va Schoeller diagrammasi (2-grafik) yordamida tahlil qilindi. Suv namunalari tahlili shuni ko'rsatadiki nishablikka bog'liq ravishda suv omborning sizot suvlarga ta'siri bir necha 100 metrdan 4-5 km gacha borishini ko'rishimiz mumkin. Suv ombordan shimoliy va shimoli-g'arbiy qismidagi sizot suvlardan olingan suv namunalari (4-5-quduqlar) kimyoviy tarkibi suv ombor havzasidagi suvning tarkibi bilan deyarli bir xil. Bu namunalar suv ombor havzasidan 4-5 km uzoqlikdagi 30-35 m chuqurlikdagi quduqlardan olingan. [4]

Suv omborning janubiy, janubi-g'arbiy va g'arbiy qismlaridagi sizot suvlardan olingan suv namunalari (11-13-14-quduqlar) kimyoviy tarkibi suv ombor havzasidagi suvdan katta farq qiladi. Suvomborning sharqiy, g'arbiy va janubiy qismi past tepaliklar bilan o'ralgan. Aksincha janubiy, janubi-sharqiy va janubi-g'arbiy qismlari suv ombor sathidan past ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Suv omboridan bo'ladigan filtratsiya jarayonida yer ostidagi tuzlar ham eriydi va sizot suvlar minerallashishini oshishiga sabab

bo'ladi. Tahlil natijalarida 11-13-14-quduqlardan olingan suv namunalari mineralizatsiya darajasi boshqa suv namunalaridan ancha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab suv ombordan janubiy va g'arbiy qismidagi hududlarning geologik tuzilishida suvda eruvchan mineral moddalar ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Hattoki janubiy hududlardagi quduqlardagi suv harorati nisbatan yuqori ekanligi ham kuzatildi. Bunga esa ushbu hududlarda radiaktiv moddalar (rodon) mavjudligini sabab qilib keltirishimiz mumkin.

Kattaqo'rg'on suv ombori joylashgan hududning asosiy suv havzasi aynan Kattaqo'rg'on suv ombori hisoblanadi. Qoradaryo daryosi shu hududga yaqin oqib o'tsa ham suv omborga nisbatan nishabligi past bo'lganligi sababli atrof-muhitga bo'ladigan ta'siri suv omborga nisbatan sezilarli darajada kam. Shu sababli Kattaqo'rg'on suv ombori joylashgan havzada suvning aylanishi sekin o'tadi. Havzada suvning sekin aylanishi erigan tuz, organik moddalar, loyqa va issiqlikni to'planishiga sabab bo'ladi va shu omillar suv havzasida saqlanib qoladi. Bundan tashqari suv omborida to'plangan issiqlik daryo va kanallar suviga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. [5].




1-grafik. Kattaqo'rg'on suv omboridagi va suv ombor atrofidagi yer osti suvlarining minerallasish darajasi (2023, mg/l, a) Piper diagrammasi (Piper diagram) asosida

Suv omboridan shimoliy qismidagi hududlarda yer osti suvlari sathi ham boshqa hududlarga nisbatan yuqori ekanligini kuzatdik. Yil davomida yuqori haroratli kunlarning ko'pligi sababli ushbu hududlarda yer yuzasidan ya'ni tuproq yuzasidan bo'ladigan bug'lanish miqdori katta. Buning natijasida esa ushbu hududlarda tuproqlarning meliorativ holati aniqlanganda, tuproqlar Cl ioni bo'yicha o'rtacha sho'rlanganligi va ularning sizot suvlarning chuqurligiga bog'liq ravishda o'zgarishi aniqlandi.

2-grafik

Kattaqo'rg'on suv omboridagi va suv ombor atrofidagi yer osti suvlarining minerallasish darajasi (2023, mg/l, a) Schoeller diagrammasi (Schoeller diagram) asosida



Suv ombor atrofidagi hududlarda yer osti suvlari sathi yilning issiq davrlarida yuqori bo'lganligi sababli tuproq yuzasidan bug'lanish miqdori ham sezilarli darajada yuqori. Haroratning yuqoriligi va yil davomida bulutli kunlarning kam bo'lishi suv ombor atrofidagi hududlarning yer osti suvlarini bug'lanishiga sabab bo'ladi. Bu ayniqsa janubiy va shimoliy qismlarida seziladi.

Bundan tashqari harorat yuqori bo'lgan yoz oylarida suv ombor suvining ekinlarni sug'orishda ishlatilishi hisobiga suv bilan qoplangan hudud qisqaradi. Janubiy qismlari quruqlikka aylanadi va bu hududlarda yer osti suvlarining bug'lanishi yanada yuqori bo'ladi. Suv omborda uzoq muddat suvning yig'ilib turishi natijasida suv tarkibidagi loyqa va tuzlar suv tubiga cho'kadi. Suvning ishlatilishi natijasida quruqlikka aylangan janubiy qismlarida bu tuzlar tuproq yuzasida to'planadi va tuproqning sho'rlanishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalarini xulosa qilib aytadigan bo'lsak suv ombor janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon nishabligi pasayib borishi natijasida suv ombordan bo'ladigan filtratsiyaning ham asosiy qimi shimoliy hududlarga to'g'ri keladi. Buning natijasida suv ombordan shimoliy tomonda joylashgan hududlarning sizot suvlar sathi bir muncha yuqori bo'ladi va ko'p jihatdan mineral tarkibi suv ombor havzasidagi suv tarkibi bilan deyarli bir xil ekanligini kuzatishimiz mumkin. Harorat yuqori bo'lgan davrlarda aynan shu hududlarda tuproq yuzasidan bug'lanish miqdori yuqori bo'lishini va buning natijasida sizot suvlarda to'plangan tuzlar tuproq yuzasida to'planishini kuzatishimiz mumkin. Bug'lanishning yuqoriligi natijasida tuproq sho'rlanishi ham yuzasiga keladi. Ayniqsa o'rganilgan hududlarda tuproqlarning Cl ioni bo'yicha o'rtacha darajada sho'rlanganligini kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek suv sarfi ko'p bo'ladigan yoz oylarida suv omborning katta qismi quruq havzaga aylanadi va tuproq yuzasidan bug'lanish miqdorining oshishi natijasida bu

hududlardagi tuproqlarda shoʻrlanishning kuchayishiga olib keladi. Bu hodisalar mavsumiy boʻlishi mumkin lekin har yili takrorlanishi va suv omborning qurilganligiga 60 yildan oshiqroq vaqt boʻlganligini hisobga olsak, suv ombor atrofidagi hududlarda sezilarli oʻzgarishlar roʻy bermoqda. Kattaqoʻrgʻon suv omborining birinchi navbatda atrofidagi yer osti suvlarining sathiga, grunt suvlar tarkibidagi tuzlar miqdoriga, tuzlarning migratsiyasiga, tuproqlar tarkibining oʻzgarishiga, tuproqlarning shoʻrlanishiga toʻgʻridan-toʻgʻri taʼsirini koʻrishimiz mumkin. Shuningdek oʻsimlik qoplamining oʻzgarishiga hamda shamollar taʼsirida suv omborning qurigan qismida toʻplangan tuzlarning katta hududlarga koʻchishiga ham bilvosta taʼsir koʻrsatmoqda. Shu sababli suv ombor atrofida himoya zonalarini tashkil etish bilan birgalikda suv yuzasidan va suv ombor atrofidagi tuproq yuzasidan boʻladigan bugʻlanish miqdorini doimiy ravishda kuzatib borish va tahlil qilish zarur boʻlib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev S., Jabbarov A.S., Zakirova S.K., Raxmatov Z., Tursunqulova A., Islomova Z. Kattaqoʻrgʻon suv omborining atrof tuproq qoplamini ekologik-meliorativ holatiga taʼsiri va uni yaxshilash chora-tadbirlari // Monografiya. – Toshkent, 2020. “Universitet”, 4-b.
2. Джамалов Р.Г., Сафронова Т.И. - Ресурсы подземных вод: их изменение под влиянием климата и распределение по странам мира в начале XXI века // Известия РАН. Серия географическая. – 2010. – №5. – С. 52-60.
3. M.R.Ikramova. Suv omborlari gidrologiyasi // Oʻquv qoʻllanma. –

Toshkent, 2019. “Baktriya Press”, 10-b.

4. Ж.Файзуллаев. Оценка воздействия осадков, испарения и фильтрационных элементов на окружающую среду при формировании водного баланса Каттакурганского водохранилища "Экономика и социум" №12(115) 2023.,.
5. F.A.Gapparov, D.V.Nazaraliyev, S.R.Mansurov, Suv omborlaridan foydalanish // Darslik. – Toshkent, 2019. 103-b.
6. Raxmatullayev A., Baratov H., Bekqulov I., Fayzullayev J. Yangi sugʻoriladigan yerlarda ichimlik suvi sifatini oʻrganish va kartalashtirishning innovatsion jihatlarini (Ulus choʻli va Narpay kanali havzasi misolida) Samarqand viloyatini innovatsion rivojlantirish: Muammo va yechimlar respublika ilmiy-amaliy konfrensiyasi materiallari. Samarqand 2020. -384-388-b.
7. Raxmatullayev A., Baratov H., Bekqulov I., Fayzullayev J. Arid iqlimli Oʻrta Zarafshon vodiysining grunt suvlar sifatiga inson xoʻjalik faoliyatining taʼsiri. Choʻllanish muammolari: dinamika, baholash, yechim. Xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya. Samarqand 2019 13-14-dekabr. 133-135-b.
8. Islamova Z.B., Abdullaev S. Kattaqoʻrgʻon suv omborining tuproqlarga taʼsiri. Agro ilm, 4 [20]SON. -Toshkent, 2011. -B.59-62.
9. Islamova Z.B., Gafurova L.A., Madrimov R.M. Current condition and usage of soil cover around kattakurgan reservoir. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/QM DYT> .Vol. 3 No. 5 (2022): wos. – P.1927–1932.

Abdullaev S., Jabbarov Z.A., Zakirova S.Q., Raxmatov Z.U., Tursunqulova A.B., Islomova Z.B. Kattaqo'rg'on suv omborini atrof tuproq qoplamining ekologik-meliorativ xolatiga ta'siri va uni

yaxshilash chora-tadbirlari (Monografiya) Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti. "Universitet". – Toshkent, 2020. 105 b.

UUK: 631.587 (575)

DEGRADATSIYAGA UCHRAGAN SUG'ORILADIGAN YERLARNING BUGUNGI KUNDAGI HOLATI

Mamayusupov Jaloliddin O'rozali o'g'li – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute” Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Ibragimov Oyatillo Shokirjon o'g'li – Budapesht texnologiya va iqtisodiyot universiteti, Qurilish, yer o'lchash va geoaxborot tizimlari muhandisligi fakulteti magistranti

Norqobilov Isroil Sherqul o'g'li – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute” Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Usmonov Ma'adir Axmadali o'g'li – “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute” Milliy tadqiqot universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarning bugungi holatini tahlil qiladi. Tuproq unumdorligining pasayishi, sho'rlanish, suv tanqisligi va noto'g'ri boshqaruv kabi omillar yerlarning qishloq xo'jaligida foydalanish salohiyatini pasaytirgani o'rganilgan. Tadqiqotda zamonaviy texnologiyalar va agrotexnik choralar asosida degradatsiyani bartaraf etish yo'llari, jumladan, suvni tejash va meliorativ ishlarni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan. Ushbu ish qishloq xo'jaligi yerlari unumdorligini tiklash va barqaror rivojlanishga erishish uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Degradatsiya, qishloq xo'jaligi yerlari, tuproq va unumdorlik.

Аннотация: В данном исследовании анализируется текущее состояние деградированных орошаемых земель. Для снижения потенциала сельскохозяйственного использования земли были изучены такие факторы, как снижение плодородия почв, соленость, дефицит воды и бесхозяйственность. В исследовании представлены рекомендации по преодолению деградации на основе современных технологий и агротехнических мер, включая сохранение водных ресурсов и улучшение мелиорации земель. Эта работа имеет неотложное значение для восстановления плодородия сельскохозяйственных земель и достижения устойчивого развития.

Ключевые слова:

деградация, сельскохозяйственные угодья, почва и плодородие.

Abstract: *This research analyzes the current state of degraded irrigated lands. The study examines factors such as declining soil fertility, salinization, water scarcity, and improper management that have reduced the agricultural potential of the lands. The research provides recommendations for mitigating degradation through the use of modern technologies and agrotechnical measures, including water-saving and land reclamation improvements. This work is of crucial importance for restoring the fertility of agricultural lands and achieving sustainable development.*

Key words. *Degradation, agricultural lands, soil and fertility.*

Kirish.

Sugʻoriladigan yerlar insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishdagi eng muhim resurslaridan biri hisoblanadi. Xususan, Oʻzbekiston kabi qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan mamlakatlarda sugʻoriladigan yerlar milliy iqtisodiyotning tayanchi boʻlib xizmat qiladi. Biroq, oxirgi yillarda sugʻoriladigan yerlarning degradatsiyasi global miqyosda dolzarb muammolardan biriga aylandi. Shoʻrlanish, eroziya, suv resurslarining cheklanishi va notoʻgʻri yer boshqaruvi natijasida tuproq unumdorligining pasayishi kuzatilmoqda. Mazkur muammo, nafaqat qishloq xoʻjaligi mahsuldorligining kamayishiga, balki ekologik muvozanatning buzilishiga va aholi turmush darajasiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Bugungi kunda yer degradatsiyasini aniqlash va bartaraf etish boʻyicha samarali choralarni koʻrish qishloq xoʻjaligining barqaror rivojlanishini taʼminlash va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash uchun

muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot sugʻoriladigan yerlarning degradatsiyasining bugungi holati, asosiy sabab va oqibatlari hamda degradatsiyani bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlarini oʻrganishga qaratilgan.

Har yili dunyo boʻyicha 6-7 million gektarga yaqin yer maydonlari qishloq xoʻjalik aylanmasidan chiqib ketmoqda. Yaʼni ulardan foydalanilmaydi. Bundan tashqari global, mintaqaviy miqyosda ham asosiy xavf antropogen degradatsiya boʻlib turibdi.

Bugun mamlakatimizda ham unumdor yerlarning soni cheklangan. Baʼzi hududlarda eʼtiborsizlik oqibatida yerlar degradatsiyaga uchrash holatiga kelib qolgan. Ana shunday salbiy oqibatlarning oldini olish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 10-iyunda “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori qabul qilindi. Unga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Qishloq xoʻjaligi vazirligi tizimida alohida yangi departament tashkil etildi. Respublikamizdagi yerlar degradatsiyasi, ularning oldini olish, bu borada amalga oshiriladigan ishlar boʻyicha vazifalar bilan shugʻullanish departamentning zimmasiga yuklatildi.

Respublikada mavjud 44,9 million gektar yerlarni bor-yoʻgʻi 4,3 million gektari yoki qariyb 10 foizi sugʻoriladigan yerlardan iborat. Ushbu yerlarning qariyb 2 million gektari yoki 45 foizi ikkilamchi shoʻrlanishga uchragan. Yoki 800 ming gektar yerlarimizda suv eroziyasi muammolari uchraydi. Qariyb 2 milliondan ortiq yerlarimizda shamol eroziyasi mavjud.

Bugungi global iqlim oʻzgarishi davrida yerlar degradatsiyasi, tuproqlarning holatini saqlash, qishloq

xo'jaligidan unumli foydalanishga doir muammolar butun dunyo ahlini tashvishga solmoqda. Yuqoridagi qarorga ko'ra, Tuproqshunoslik va agrokimyoy ilmiy-tadqiqotlar instituti O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tasarrufiga o'tkazildi va uning nomi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti deya o'zgartirildi. Bu institut vakillari oldiga juda ko'p vazifalarni qo'yimoqda. Bundan tashqari hududlarda Xorazm, Buxoro, Andijon va Qashqadaryo viloyatlarida institutning mintaqaviy filiallari tashkil etildi. Bu orqali joylardagi muammolarga o'z vaqtida ilm va ishlab chiqarish integratsiyasini qo'llagan holda ilmiy yondashuv asosida yechim topish mumkin. Yerlar sifatining yomonlashish jarayoni, ularning hosildorligi pasayishi, tarkibidagi ozuqa moddalarining kamayishi – yerlar degradatsiyasi hisoblanadi. Qurg'oqchil iqlim sharoitida yerlar degradatsiyasi ko'p hollarda cho'llanish jarayoniga o'tib ketadi, bunda hosildor yer sahroga aylanadi.

Tuproqlarning degradatsiyasini ham bir nechta turlari mavjud. Bulardan asosiylari: eroziya, sho'rlanish, botqoqlanish, gumussizlanish, natijada sahrolanish yuzaga keladi. Mamlakatimizning har bir qarich yeri bebahodir. Odamlarning yerga bo'lgan munosabati kundankunga o'zgarmoqda. Bugungi klaster va dehqon-fermerlar yerlarning unumdorligini oshirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini ko'paytirmoqda. Bunda respublika qishloq xo'jaligi sohasida ilm va innovatsiyaning birgalikda olib borilayotgani muhimdir.

Salbiy oqibatlar bilan jamiyatga zarar keltiradigan degradatsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan. Tuproqshunoslik va agrokimyoviy

tadqiqotlar instituti olimlari tomonidan degradatsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida 2022-2025-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar majmuasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, sho'rlanishning oldini olish bo'yicha maxsus yo'l xaritasi tuzildi. Jumladan, tuproqlarning gumussizlanishini oldini olish uchun gumus miqdorini oshirishga doir yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Yer maydonlaridagi tuproqlarning asosiy gumussizlanishi 0,5 foizdan kamni tashkil etmoqda va ushbu chora-tadbirga ko'ra, bunday ko'rsatkichdagi yer maydonlarini qisqartirish rejalashtirilgan. Ushbu yo'l xaritada 12-13 bandedan iborat chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Xususan, degradatsiya jarayonlarini bartaraf etishda tomchilatib sug'orish usuli ham tavsiya etilgan. Bu usul suv va zarur o'g'itlarni sug'orilayotgan ekinning ildiz yonidagi qismga to'g'ridan-to'g'ri uzatuvchi tizim bo'lib hisoblanadi. Suv uzatish miqdori va davriyligi o'simlikning ehtiyojidan kelib chiqib yuboriladi. Bu usulda suv barcha ekinlarga bir tekisda, bir xil miqdorda va suvni ortiqcha isrof qilmasdan yetib boradi. Shuningdek, suvni oqish vaqtidagi bug'lanishlari miqdori kamayadi.

Degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan yerlarning bugungi kundagi holati. Yer resurslari har bir mamlakatning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorligi uchun asosiy omillardandir. Sug'oriladigan yerlar, ayniqsa, qishloq xo'jaligida muhim rol o'ynab, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash va daromad manbalarini yaratishda katta ahamiyatga ega. Ammo bugungi kunda ko'plab sug'oriladigan yerlar degradatsiyaga uchrab, unumdorlik salohiyatini yo'qotmoqda. Ushbu maqolada degradatsiyaga uchragan

sug'oriladigan yerlarning bugungi holati, sabab va oqibatlari, shuningdek, muammoni hal qilish yo'llari haqida so'z yuritamiz.



1-rasm. Tuproq degradatsiyasi

Sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi sabablari. Sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi qishloq xo'jaligida noto'g'ri boshqaruv, tabiiy sharoitlarning yomonlashuvi va texnologik sustkashlik tufayli kelib chiqmoqda. Ushbu jarayonning asosiy sabablari:

1. Sho'rlanish: Sug'orish tizimlarida suvni me'yordan ortiqcha ishlatish, drenaj tizimlarining eskirganligi va yer osti suvlarining ko'tarilishi natijasida tuproqdagi tuzlar yuqoriga chiqib, sho'rlanishga olib keladi.

2. Suv tanqisligi: Suv resurslarining kamayishi va ular bilan samarali ta'minlanmaslik qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini pasaytiradi.

3. Eroziya: Tabiiy yomg'ir suvlari va shamol eroziyasi tuproq qatlamini yuvib ketib, tuproqning hosildorligini pasaytiradi.

4. Texnik va boshqaruv xatolari: Noto'g'ri sug'orish usullari, ortiqcha o'g'it ishlatish yoki beg'araz texnik xizmat ko'rsatmaslik ham yerlarni yaroqsiz holga keltiradi.

Bugungi kundagi holat. Hozirgi vaqtda sug'oriladigan yerlarning katta qismi o'zining unumdorligini yo'qotish xavfi ostida turibdi. O'zbekistonda, xususan, qishloq xo'jaligida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan hududlarda yer degradatsiyasi iqtisodiy zarar

keltirmoqda. Masalan:

Sho'rlanish darajasi o'smoqda: Ko'pgina hududlarda, ayniqsa, pasttekisliklarda joylashgan yerlarning 50-60% sho'rlanishga uchragan.

Drenaj tizimlari eskirgan: Aksariyat hududlarda melioratsiya tizimlari zamonaviy talabga javob bermaydi. Bu esa tuproqni tiklashni qiyinlashtiradi.

Hosildorlik pasaygan: O'rtacha unumdorlik ko'rsatkichlari keskin kamayib, hosildorlikdagi farqlar yildan-yilga kuchayib bormoqda.

Degradatsiyaning oqibatlari. Yerlarning degradatsiyasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda:

1. Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid: Unumdor yerlarning kamayishi oziq-ovqat mahsulotlarining ishlab chiqarilishini qisqartiradi.

2. Iqlim o'zgarishiga ta'sir: Degradatsiyaga uchragan yerlar karbonat angidridni yutish salohiyatini yo'qotib, issiqxona gazlarining ortishiga sabab bo'ladi.

3. Iqtisodiy zarar: Tuproq degradatsiyasi sug'orish xarajatlarini oshirib, hosilni kamaytiradi va qishloq xo'jaligi sohasida bandlikni kamaytiradi.

Muammoni hal qilish yo'llari. Yer degradatsiyasini bartaraf etish bo'yicha zamonaviy yondashuvlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Melioratsiya tizimini modernizatsiya qilish:

- Drenaj tizimlarini ta'mirlash va zamonaviylashtirish orqali sho'rlanishni kamaytirish mumkin.

- Yer osti suvlarini monitoring qilish tizimlarini joriy etish zarur.

2. Suvni tejash texnologiyalarini joriy etish:

- Tomchilatib sug'orish va yomg'irnatib sug'orish usullari tuproqni ortiqcha suv bilan to'ldirishdan

saqlaydi.

- Suv resurslarini to'g'ri boshqarish orqali tuproqni himoya qilish mumkin.

3. Tuproqni ekologik boshqarish:

- Ekologik o'g'itlardan foydalanish, tuproqni zararlantiruvchi kimyoviy vositalarni cheklash kerak.

- Yerni almashlab ekish tizimini qayta tiklash va tabiiy o'tloqlarni rivojlantirish lozim.

4. Axborot texnologiyalaridan foydalanish:

- GIS va masofaviy zondlash texnologiyalari yordamida tuproq va suv resurslarining holatini kuzatib borish.

- Har bir yer maydoni uchun individual boshqaruv rejasini tuzish.

5. Hukumat va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik:

- Yer resurslarini boshqarish va degradatsiyaga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish.

- Xalqaro ekspertlar yordami bilan innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

Xulosa

Sug'oriladigan yerlarning degradatsiyasi qishloq xo'jaligi uchun dolzarb muammo bo'lib, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy oqibatlarini keng ko'lamda sezilmoqda. Sho'rlanish, eroziya, suv resurslarining cheklanishi va noto'g'ri boshqaruv yerlarning unumdorligini pasaytirib, aholi farovonligi va oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda.

Ushbu muammoni hal qilish uchun melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish, ekologik boshqaruvni kuchaytirish va tuproqni himoya qilish bo'yicha kompleks yondashuv zarur. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, GIS tizimlari va masofaviy zondlash usullari yordamida yer holatini kuzatib borish

muhim ahamiyat kasb etadi.

Tuproq degradatsiyasini samarali boshqarish orqali sug'oriladigan yerlarning hosildorligini tiklash, qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlashga erishish mumkin. Bu nafaqat hudud iqtisodiyotini rivojlantirish, balki aholi turmush darajasini oshirishda ham katta ahamiyatga ega. Degradatsiya jarayonlariga qarshi kurashish masalasi davlat va jamiyatning uzluksiz e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, A., Xolmurodov, Sh. "Sug'oriladigan yerlarning ekologik muammolari va ularni hal qilish yo'llari" Toshkent: Ekologiya nashriyoti, 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi. "Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha davlat dasturi." Toshkent, 2021.

3. Abdullayev, J. "Yer degradatsiyasi va tuproq unumdorligini tiklash" Agrar ilmiy tadqiqotlar markazi, 2018.

4. FAO (BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti). "Yer degradatsiyasining qishloq xo'jaligiga ta'siri" Rim, 2019.

5. Ismoilov, N. "Sho'rlangan yerlarda samarali dehqonchilik usullari" Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti, 2020.

6. GIS texnologiyalar markazi. "Sug'oriladigan yerlarda monitoring va tahlil" Toshkent, 2021.

7. Qodirov, U., va boshqalar. "Sug'oriladigan yerlarning melioratsiyasi va suvni tejash usullari" O'zbekiston Agrar Universiteti, 2019.

8. UNEP (BMT Atrof-muhit dasturi). "Markaziy Osiyoda yer

resurslari degradatsiyasi: Sabablar va yechimlar” Nayrobi, 2017.

9. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya ilmiy markazi. “Sug‘oriladigan yerlardagi agrotexnik choralar va ularning samaradorligi” Toshkent, 2018.

10. Mahmudov, A. “Suv tanqisligi sharoitida tuproq unumdorligini oshirish yo‘llari” Agroinnovatsiya jurnali, 2020, №4, 30-40-betlar.

11. Sokolov, V. I. “Sho‘rlangan yerlarda tuproqni melioratsiya qilishning nazariy asoslari” Moskva: Geografiya va Ekologiya Nashriyoti, 2019.

12. Turdiyev, Sh. “Sug‘oriladigan yerlarning samaradorligini oshirish uchun ilg‘or texnologiyalar” Qishloq xo‘jaligi innovatsiyalari jurnali, 2022.

13. Abdullaev, I. “Tuproq degradatsiyasi va suv boshqaruvi: amaliy yondashuvlar” Toshkent, 2021.

14. Suv Resurslari Instituti. “Sug‘oriladigan yerlarning degradatsiya darajasi va ekologik oqibatlari” Toshkent, 2020.

15. Buxoro Davlat Universiteti. “Sho‘rlangan va degradatsiyaga uchragan yerlarning hosildorligini tiklash strategiyalari” Buxoro, 2022.

UUK: 630*114.445:631.587:528.8.04(575.11)

**QISHLOQ XO‘JALIK YER MAYDONLARINING SHO‘RLANISH
DARAJASI MASOFADAN ZONDLASH MA’LUMOTLARIDAN
FOYDALANIB TAHLILI (QASHQADARYO VILOYATI NISHON TUMANI
MISOLIDA)**

Feruza Tohirova - «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Abduxalimov Lochinbek Mirodil ug‘li - «Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti» Milliy tadqiqot universiteti magistranti

Аннотация. Yer resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish usullari turlicha bo‘lib, ularni amalga oshirishda geoinformatsion texnologiyalar va masofadan zondlash ma’lumotlari tahlilining ahamiyati beqiyosdir. Mustaqillik yillarida ko‘plab ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, shu jumladan yer resurslari uchun umumiy geoaxborot bazasini yaratish dolzarb masalaga aylangan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – qishloq xo‘jaligi yer maydonlarining sho‘rlanish darajasini tahlil qilish va masofadan zondlash texnologiyalari yordamida

ularning sifat monitoringini amalga oshirishdir.

Калит сўзлар: monitoring, qishloq xo‘jaligi, masofadan zondlash, NDSI, xaritalash.

Аннотация. Существуют различные методы управления земельными ресурсами и их эффективного использования, и значение геoinформационных технологий и анализа данных дистанционного зондирования Земли в их реализации несравнимо. В годы независимости актуальным вопросом стало создание единой геoinформационной базы по

многим социально-экономическим сферам, в том числе по земельным ресурсам. Основная цель данного исследования – проанализировать уровень засоления сельскохозяйственных земель и контролировать его качество с помощью технологий дистанционного зондирования.

Ключевые слова:

Сельскохозяйственные орошаемые земли, засоление почв, дистанционное зондирование, геоинформационные системы, NDSI.

Abstract. *There are various methods of managing and effectively using land resources, and the importance of geoinformation technologies and remote sensing data analysis in their implementation is incomparable. During the years of independence, the creation of a common geoinformation base for many socio-economic sectors, including land resources, has become an urgent issue. The main purpose of this study is to analyze the level of salinity of agricultural land and monitor its quality using remote sensing technologies.*

Keywords: *Agricultural irrigated lands, soil salinization, remote sensing, geographic information systems, NDSI.*

Kirish. Hozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash, zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida tahlil qilish, shuningdek, barcha sohalarni rivojlantirish uchun ilmiy-texnik salohiyat va mintaqalarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash eng muhim vazifalardan biridir. Yer resurslarini boshqarish va tuproq sifatini tadqiq qilishda geoinformatsion texnologiyalar hamda masofaviy zondlash ma'lumotlarini qo'llash

muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yondashuv sohadagi muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda yer resurslaridan samarali foydalanish va boshqarishni rivojlantirish masalalari bo'yicha respublika mintaqalariga, xususan, O'zbekistonning janubiy hududida joylashgan Qashqadaryo viloyatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ushbu hududda muhim masalalardan biri – cho'l hududlaridagi qishloq xo'jalik yerlarini samarali boshqarishdir. Bu masalaning ahamiyati quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- cho'l hududlarida qishloq xo'jaligi yerlaridan noto'g'ri foydalanish;

- agrotexnik tadbirlarning noto'g'ri amalga oshirilishi;

- ekinlarni joylashtirishda ilmiy yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmasligi.

Mazkur hududda quyidagi ekologik muammolar ko'zga tashlanmoqda:

- cho'llanish jarayonining kuchayishi;

- yer osti suvlarining sathi oshishi;

- tuproq sho'rlanish darajasining ortishi;

- ekin maydonlarining hosildorligi pasayishi;


- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish xarajatlarining oshib borishi.

Bu muammolarni ilmiy asosda hal etish uchun ekinlarni almashlab ekish, masofadan zondlash va geoinformatsion tizim (GAT) texnologiyalaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega yondashuvlardan hisoblanadi. Yer resurslarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish hamda bu jarayonlarni ko'rgazmali tarzda aks ettirish uchun masofadan zondlash va GAT metodlaridan foydalanish zarur.

Shu nuqtai nazardan, qishloq xo'jalik yerlarining unumdorligini tizimli monitoring qilish, elektron xaritalar yaratish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha usullarni ishlab chiqish ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot hududi

ozirgi davrda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va hosildorlikni prognozlash uchun masofadan zondlash (MZ) texnologiyalari tobora keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar



qishloq xo'jaligida tuproq unumdorligi, ekinlarning holati va suv resurslarini boshqarish imkonini beradi.

1-rasm. Nishon tumani joylashgan o'rne xaritasi

MZ ma'lumotlari mavsumiy tahlil uchun dolzarb vosita bo'lib, u yer maydonlari holati va ekologik o'zgarishlarni tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu esse doirasida MZ ma'lumotlarini yig'ish miqdori va sifat ko'rsatkichlarini mavsumiy tahlil qilish masalalari tahlil qilinadi. Masofadan zondlash ma'lumotlarining qishloq xo'jaligidagi ahamiyatini belgilovchi omillardan biri ularning keng miqyosda qo'llanilishi va turli holatlar uchun moslashuvchanligidir. MZ texnologiyalari sun'iy yo'ldoshlar, uchuvchisiz uchish qurilmalari (dronlar) va aerofoto suratga olish uskunalaridan foydalanib, hududiy ma'lumotlarni aniqlashga imkon

beradi. Bu usullar yordamida olinadigan ma'lumotlarning miqdori va sifati mavsumiy tahlilni samarali amalga oshirish uchun muhim o'rin tutadi. MZ ma'lumotlarini yig'ish miqdori va sifati bir necha omillarga bog'liq. Eng avvalo, foydalanilgan texnologiya turi va uning imkoniyatlari muhimdir. Masalan, yuqori spektral rezolyutsiyaga ega sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari tuproq va ekin qoplamining nozik tafsilotlarini kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, vaqtinchalik rezolyutsiya – ya'ni, ma'lumotlarning yangilanib borish tezligi ham tahlil uchun ahamiyatlidir. Qishloq xo'jaligi hududlarida mavsumiy jarayonlar tez o'zgarib turadi, shuning uchun o'z vaqtida olingan ma'lumotlar qishloq xo'jaligi amaliyotlarini to'g'ri boshqarishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligida MZ texnologiyalari yordamida olinadigan asosiy ko'rsatkichlar qatoriga NDVI (normallashtirilgan vegetatsiya indeksi), SI (Sho'rlanish index) va NDSI (normallashtirilgan sho'rlanish indeksi) kiradi. Bu indekslar mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish, hosildorlikni prognozlash va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha tahlillar uchun ishlatiladi. NDSI ko'rsatkichi tuproqlarning sho'rlanishi indeksini aniqlashga yordam beradi, bu esa yer maydonlarini sho'rlanishini baholash imkonini beradi. Masalan, bahor mavsumida NDSI ko'rsatkichining kamligi sho'rlanish kamligini, kuz oylarida esa bu ko'rsatkichning oshishi tuproqlarning sho'rlanish indeksini oshganligini ko'rsatadi. Mavsumiy tahlilda sun'iy yo'ldosh tasvirlari va boshqa MZ manbalari orqali olinadigan ma'lumotlarning sifati juda muhim ahamiyatga ega. Sifatni belgilovchi asosiy omillardan biri rezolyutsiyadir.

Tadqiqot uslubi.

NDSI eng ko'p qo'llaniladigan o'simlik indekslaridan biri bo'lib, uning sun'iy yo'ldosh orqali baholash va o'simlik qoplamini monitoring qilishda foydasi so'nggi yigirma yil ichida yaxshi namoyon bo'ldi.


$$NDSI = (NIR - VIS) / (NIR + VIS)$$

Bu yerda, NIR - sun'iy yo'ldosh tasvirining yaqin infraqizil diapazoni (4-band) va sun'iy yo'ldosh tasvirining VIS (5-band).


NIR va VIS mos ravishda spektrning ko'rinadigan ($l \sim 0,6$ mkm) va yaqin infraqizil (NIR) ($l \sim 0,8$ mkm) hududlarida o'rtacha hisoblangan sirt aks ettirishni ifodalaydi. NDSI o'simlik qoplamining ma'lum biofizik xususiyatlari bilan bog'liq, masalan, Barg maydoni indeksi, o'simliklarning fraksiyonel qoplamini, o'simlik holati va biomassa. NDSI ortishi bilan deyarli chiziqli ravishda ortadi va keyin asimptotik fazaga kiradi, bunda NDSI ortishi bilan bir oz sekin ortadi (Platonov va boshq. 2015).

Tadqiqot natijalari.

MZ indikatorlaridan foydalanish muhim. Bu indikatorlar tuproq va o'simlik qoplamining holatini mavsumiy o'zgarishlar kesimida aniqlash va ekologik omillar ta'sirini baholash imkonini beradi. Nishon tumani tuproqlarining unumdorligi mavsumiy va iqlimiy omillarga sezilarli darajada bog'liq. Bahor va yoz oylarida o'simlik qoplamining vegetatsiya ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu davrda suv resurslariga bo'lgan talab sezilarli oshadi. Kuz faslida hosil yig'im-terimi tugaganidan keyin tuproq sifatining pasayishi kuzatilishi mumkin. Shuning uchun maqbul mexanizmni tanlashda iqlim, tuproq va suv resurslari kabi omillarni birgalikda hisobga olish zarur.




April oyi



Oktyabr oyi **2-rasm. Yer maydonlarini** **sho'rlanishini NDSI analizi** **natijalari**

